



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK,
FUQAROLIK JAMIYATI
ASOSLARINING SHAKLLANISHI,
AMALGA OSHIRILGAN
SIYOSIY ISLOHOTLAR**

**MODULI BO'YICHA
O'QUV- USLUBIY
MAJMUA**

2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati
asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy
islohotlar”**

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:	O‘zMU, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedra dotsenti R.X. Xomitov
Taqrizchi:	t.f.d., prof. A.A. Yermetov – O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.d., prof. I.M.Haydarov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiyeti
Xorijiy ekspert:	PhD., B.I.Rakisheva – Qozog‘iston ijtimoiy fikrni o‘rganish markaz direktori

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrda 4-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	17
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	27
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	112
V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	120
V. GLOSSARIY.....	122
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	128

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda

raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlarini mazmun-mohiyatini o'zlashtirish, O'zbekiston va jahon hamjamiyati, xalqaro reyting va indekslardagi o'rni hamda nufuzini ortib borishini tahlil qilish va baholash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“O'zbekistonning eng yangi tarixi” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“O'zbekistonning eng yangi tarixi” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;

- O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida” hamda “Innovatsion faoliyat to'g'risida” Qonunlarini;

- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘shish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
- zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
- ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;

- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta‘lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta‘sirini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiya ning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- milliy davlat boshqaruvi tizimini;
- Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini;
- O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlarni;
- huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlarni;
- O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini;
- siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlarni;
- ijtimoiy-sherikchilikni;
- o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rnini;
- tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini;
- O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishini;
- O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini;
- O‘zbekiston Respublikasining BMTga a‘zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rnini;
- inson kamoloti indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksilarini;
- O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasida olib borgan siyosatini;

- O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishini;
- O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichini;
- O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasida olib borgan siyosatini;
- O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma‘naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta‘lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofaviy ta‘lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta‘lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun‘iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta‘lim sohasida sun‘iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;

- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyatini yoritib berish;
- o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rnini ochib berish;
- siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlarni baholash;
- O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishini tahlil etish;
- tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini o‘zlashtirish;
- “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” g‘oyasining mazmun mohiyatini ochib berish *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;

- ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi mazmun mohiyatini yoritib berish;
- inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish;
- O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSH, Xitoy mamlakatlarining o'rnini ochib berish;
- O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklarini baholash;
- O'zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni izohlash;
- Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi ahamiyatini ochib berish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tatbiq etish;

- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limdagi ta'sirini ochib berish;
- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- o'z-o'zini boshqaruv organi-mahalla boshqaruv tizimining takomillashuvini tahlil etish;
- siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlarni ochib berish;
- O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishini yoritib berish;
- O‘zbekiston Respublikasining BMTga a‘zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rnini tahlil etish va baholash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “O‘zbekiston va jahon hamjamiyati, xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafiy fanlarni, jumladan mantiqni o‘qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlarini va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘lash, ularni amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	jumladan		Ko'chma dars
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	Milliy davlat boshqaruvi tizimi. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki.	4	2	2	6
2.	O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).	6	2	2	
3	"Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari.	6	2	2	6
4.	Inson haq-huquqlarini himoya qilish. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat.	4	2	2	
Jami:		28	8	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Milliy davlat boshqaruvi tizimi.

Reja:

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.
2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.
3. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.
4. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar.

2-mavzu: O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.

Reja:

1. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Inson haq-huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish.
3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g‘oyasi va uning mohiyati.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.

3-mavzu: “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Reja:

1. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
2. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishi.
3. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi.

4-mavzu: Inson haq-huquqlarini himoya qilish.

Reja:

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmatini ta‘minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
2. Inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. (2 soat)

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni.

2-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonning asosiy qonuni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.

3-amaliy mashg'ulot: 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari.

2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar.

4-amaliy mashg'ulot: Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o'zgarishlar.

KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI

Ko'chma mashg'ulotlar "Milliy davlat boshqaruvi tizimi" (6 soat) hamda "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar" (6 soat) mavzulari yuzasidan zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN

INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda -yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.


3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar: 1-ta’lim
oluvchilar
2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


"Rolli o'yin" metodi-ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

"Rolli o'yin" metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida

“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:


- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko‘p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi-bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarida belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar

rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada "Loyiha" metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Professor-o'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar professor-o'qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Professor-o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Professor-o'qituvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Professor-o'qituvchi "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhli ish;
- jamoa ishi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Milliy davlat boshqaruvi tizimi.

Reja:

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.
2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.
3. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.
4. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar.

1. O'zbekistonda milliy boshqaruv. Hokimiyatlarning bo'linish prinsipi. Ko'ppartiyaviylik tizimi. Mustaqillik yillarida ryespublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish zarur edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan-to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

1990 – 1992 yillarda O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi – Konstitutsiyaning qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish maqsadida, bir necha Qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi **xalq deputatlarining maqomi** to'g'risida»gi Qonun, 1990 yil 31 oktyabr, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun, 1991 yil 31 avgust, «O'zbekiston Respublikasi Ijroiya hokimiyati – boshqarma idoralarining tuzilishini takomillashtirish to'g'risida»gi Qonun, 1990 yil 3 noyabr, O'zbekiston Respublikasi «Toshkent shahar hokimini saylash tartibi to'g'risida» muvaqqat Nizomni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Rayosatining Qarori, 1991 yil 25 noyabr va boshqalar. 1992 yil 4 yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992 yil 14 yanvarda ushbu qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992 yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati – hokimiyatlar tuzildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari 2 ga bo'linadi: mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlari. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini kollegiallik asosida olib boradi. Mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliyhuquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Mahalliy vakillik organlarining hamma bo'g'inlari saylov yo'li bilan tashkil qilinadi. Qonun vakillik organlariga har tomonlama bilimga, tajribaga ega, keng, mustaqil fikrlovchi shaxslarning saylanishini va bu organlar ishchan bo'lishini nazarda tutadi. 1994 y. 25 dek. da va 1999 y. 5 dek. da O'zbekistondagi mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar o'tkazildi. Mahalliy ijroiya organlari — hokimiyatlarga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi va u yakkaboshchilik prinsipi asosida ish olib boradi. Hokimiyatlar boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning

tuzilishi, tashkil etilishi va faoliyati O‘zRning Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent sh. ijroiya hokimiyati organlarining tuzilishi va shtatlari hokim tomonidan O‘zR Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, tegishli xalq deputatlari kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o‘zgartiriladi. Tuman, shahar ijroiya hokimi-yati organlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijroiya hokimiyati organlari tuzilishi va shtatlari tarkibi Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Xalq deputatlari kengashlari va hokim munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarga asosan hududdagi muhim masalalar, muammolarni hal qilishda maslahatlashish uchun hokimlar huzurida maslahat kengashi tuzildi. Lekin bunday maslahat kengashlari tuzilishi hokimning faoliyatidagi yakkaboshchilik prinsipiga putur yetkazmaydi. Ijroiya hokimiyati bo‘linmalari rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda va hokimning taqdimiga binoan, tegishli xalq deputatlari kengashlari sessiyalarida lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Mahalliy vakillik organlari va hokimlar qabul qiladigan hujjatlar konstitutsiya va qonunlarga zid bo‘lmasligi lozim. Hokim tomonidan qabul qilingan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin. Jamiyatdagi muhim ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyatning o‘rni katta. Ushbu tamoyilga ko‘ra, davlat hokimiyatining bo‘linish tamoyilida parlament taraqqiyoti muhim o‘rin tutadi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lining shakllanishi O‘zbekistonda qonunchilik tizimini shakllantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Hokimiyatning bo‘linish tamoyili Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq **qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatidan** tashkil topgan. O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni Parlament, ya’ni Oliy majlis amalga oshiradi.

Shu o‘rinda parlament so‘zi, uning lug‘aviy ma’nosi hamda mohiyati xususida. Parlament - (fransuzcha “parler” so‘zlashmoq, gapirmoq ma’nolarini anglatadi) ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarga yoyilgan. Parlament barcha demokratik mamlakatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo‘yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo‘lib, hududiy saylov okruglari bo‘yicha, odatda, ko‘ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to‘lgan fuqarolardan saylanadi. Parlament turli davlatlar daturlicha nomlanadi. Rossiyada - Davlat Dumasi, Ukrainada - Rada, Serbiyada - Skupshina, Shvetsiyada - Rikstag, AQShda-Kongress, Isroilda - Knesset, Mo‘g‘ulistonda - Xalq Xurali, Afg‘onistonda-Xalq Jirg‘asi, Ozarbayjonda – Milliy Majlis, O‘zbekistonda esa Oliy Majlis (1925-1989 yillarda Oliy Sovet, 1990-1994 yillarda Oliy Kengash deb yuritilgan) deb yuritiladi. Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan va unga birinchi saylov 1994 yil 25 dekabrda bo‘lib o‘tgan. Ungacha bu vakolatni **Oliy Kengash** amalga oshirgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan **150 deputat**dan iborat. Oliy Majlis Senati a’zolari **100 nafar** bo‘lib, ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlisida

deputatlar orasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda, 6 kishidan saylanadi. Senatning qolgan 16 nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasida **«Davlat hokimiyatining tashkil etilishi»** deb nomlangan bo‘lim bo‘lib, unda birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqidagi asosiy masala joy olgan. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Konstitutsiyada Oliy Majlisning ana shu ikkala palatasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar o‘z ifodasini topgan. 2002 yil 12-13 dekabrda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning 10 sessiyasi xalqimizning xohish-irodasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida“ va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlarni qabul qildi. Bu qonunlar qabul qilingach, 2003 yil 24 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”ga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi. Ularning vakolat doiralari va mas‘uliyati Prezident Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ham o‘z ifodasini topgan. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati 5 yil. Ushbu palatani tuzish g‘oyasi Birinchi Prezident I.A Karimov tomonidan 2000 yil 25 maydagi 2- sessiyasida ko‘tarilgan edi. Shundan so‘ng ikki palatali parlamentni tuzish to‘g‘risida referendum 2002 yil 27 yanvarda o‘tkazildi. Demak, ana shu Qonunchilik palatasi mamlakat aholisi vakilligini ta‘min etadi, ularning manfaatlarini inobatga oladi. Oliy Majlisga nomzodlarni ko‘rsatish tamoyili quyidagicha. Bevosita saylov kunigacha **25 yoshga** to‘lgan hamda kamida **5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston fuqarasi** Qonunchilik palatasi va Senatning deputati etib saylanishi mumkin. Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas. Unda qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni ko‘rib chiqish uchun qo‘mitalar va komissiyalar tuziladi. Yuqorida qayd etilganidek, Oliy Majlis yuqori palatasi Senat hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a‘zolaridan iborat bo‘ladi. Senat a‘zolari Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar, davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan 6 kishidan saylanadi. Senatning **16 nafar a‘zosi** fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasidagi obro‘li fuqarolari orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlisning quyi Qonunchilik palatasiga va Mahalliy hokimiyat organlariga (viloyat, tuman, shahar kengashlariga) saylovlar bo‘lib o‘tdi, qayta saylov esa 2005 yil 9 yanvarda o‘tkazildi. O‘zbekistonda 2005 yildan boshlab uning davlat qurilishi siyosiy hayotida yangi davr boshlandi. Ikki palatali parlament shakllantirildi. 2005 yil yanvarida Senat a‘zolari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko‘rsatildi va aniqlandi. Umuman, O‘zbekistonda saylov qonunchiligi, ya‘ni parlament taraqqiyoti 4 bosqichni bosib o‘tdi: birinchi bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilungunga qadar davr bo‘lib, bu davrda O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti saylovi va Referendum to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Ikkinchi bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda "saylov tizimi" shakllantirildi. Uchinchi bosqich 1997-2003 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. To'rtinchi bosqich 2003 yildan keyinga davr, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq saylov qonunlariga o'zgartirishlar kiritildi va 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis qo'yi qonunchilik palatasiga saylov o'tkazildi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasida Qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatlarida, davlat va jamiyat qurilish sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda talay o'zgarishlar bo'lganligini qayd etadi.

2019 yil 25 iyunda O'zbekiston Respublikasining yangi Saylov Kodeksi qabul qilindi. U 18 bob, 103 moddadan iborat. Bunda, avvalo, saylovga oid mavjud bir qator qonunlar va qonunosti hujjatlari yaxlit hujjatga jamlandi. Pirovardida esa qonun normalari bilan saylov jarayonlarida fuqarolarning saylov huquqlariga so'zsiz rioya etilishi, saylovchilarga erkin ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, deputatlikka, Prezidentlikka nomzod ko'rsatadigan siyosiy partiyalar va nomzodlarga saylov kampaniyasi davomida teng sharoit yaratish imkoniyati yanada mustahkamlandi. Saylov kodeksi kuchga kiritilishi munosabati bilan 30 ga yaqin qonun hamda qonunlarga keyinchalik kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar, shuningdek, qonunosti hujjatlari o'z kuchini yo'qotdi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida", "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Aytish joizki, ularning barchasida fuqarolarning saylov huquqlariga doir deyarli bir xil normalar takrorlanardi. Saylovga oid qonunlarning ko'pligi ularni qo'llashda muayyan qiyinchiliklar tug'dirganligi ham o'z-o'zidan tushunarli. Saylov kodeksidan shu paytgacha milliy saylovchiligimizda bo'lmagan o'nlab yangi norma va qoidalar joy oldi, amalda bo'lgan ayrim tartib-qoidalar bekor qilindi. Jumladan, nomzodlarning ishonchli vakillari O'zbekiston Respublikasidagi safar xarajatlarini saylovni o'tkazish uchun ajratilgan mablag' hisobidan to'lash tartibi belgilandi. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari soni 3 dan 5 nafargacha ko'paytirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning saylovda ishtirokini **cheklovchi normalar** chiqarib tashlandi. Qonunchilik palatasida amaldagi deputatlik o'rinlari (150 o'rin) saqlab qolingani holda, Qonunchilik palatasida deputatlik o'rinlari uchun O'zbekiston **Ekologik harakati vakillariga kvota ajratish instituti bekor qilindi.** Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga nomzod ko'rsatish tartibi barham topdi. Endilikda saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish Kodeks bilan tartibga solinadi. Siyosiy partiyalar tomonidan imzo yig'ish jarayonida saylovchilar bundan keyin bir yoki bir nechta nomzodni yoxud partiyani qo'llab imzo qo'yishi mumkin

bo'ladi.

Kodeksda protsessual, ya'ni bevosita saylov jarayonlari bilan bog'liq bir qator yangi qoidalar ham joriy etildi. Jumladan, saylov uchastkasida ovozlarni sanash bayonnomasining nusxasini darhol joylashtirish, ovoz berish tugaganidan keyin uchastka saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar (ovozlarni sanab chiqish, bayonnoma tuzish va boshqalar), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari tomonidan uchastka saylov komissiyasi a'zolariga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish tartibi belgilandi. Qonunchilik palatasiga, mahalliy Kengashlarga saylov bir vaqtda o'tkazilgan taqdirda yagona saylov uchastkalari tuziladi. Ilgari Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlis Senati a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizom bekor qilinib, Senat a'zolarini Saylov kodeksiga binoan saylash joriy etildi.

Ijro etuvchi hokimiyat. Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Mamlakatimizda Bosh vazir hukumat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Ilgarigi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yulida muhim qadam bo'ldi. Konsepsiyada mazkur tuzilma vakolat doiralarining kengaytirilganligi ham demokratik islohotlar jarayonining mantiqiy davomidir. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq, endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tavsiya etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda, tasdiqlangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi jami Oliy Majlis a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilinadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod

etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi. Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi. "Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmagan holatda, uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisining zimmasiga yuklatiladi. Bunda uch oy ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi." 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanligini belgilaydigan normaning chiqarilishi, ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqyealardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89- moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yildi. Mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining toboramustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'ekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shartsharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Bu bilan birga, bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda. Buning uchun "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish vaqti kelganligi Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasida qayd etilganidek "...muhim masalalar qatorida davlat xizmatchilari mehnatiga haq to'lash va ularning munosib ijtimoiy ta'minot tizimini yaratish, ayni vaqtda mansabdor shaxslar javobgarligini oshirishni ham ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir. Biz boshqaruv sohasida birinchi navbatda ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz zarur". Ijro hokimiyati organlari zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish tartibini, ularning mas'uliyat doirasini aniq belgilash lozim. Iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish kerak. Ya'ni davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishni cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish darkor. Hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim. Davlat xizmatlarini bevosita quyi bo'g'inlarda ko'rsatish, mahalliy

hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bu borada mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim. Davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta'sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish kerak. Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda. Yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini og'ishmay amalga oshirish lozim. **Prezidentlik boshqaruvi** - Prezident so'zi lotincha "oldinda o'tiruvchi" ma'nosini bildiradi. Respublika boshqaruvi shaklidagi davlatlarda davlat va hukumat rahbari. Odatda, Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanib, davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq nomidan ish yuritadi. Jahonda birinchi Prezidentlik boshqaruvi XVIII asr oxirida AQShda joriy qilingan.

O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi O'zbekiston SSR Oliy Kengashning **1990 yil 24 martda** bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, Prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risidagi qarori asosida joriy qilingan. 1989 yilning 23 iyunida Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi, 1990 yilning martidan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti sifatida o'z faoliyatini boshlagan edi. 1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Prezidenti saylovi tug'risida"gi qonun qabul qilingan edi. Bu qonunga 1997 yil 26 dekabr va 1999 yil avgustda hamda 2004 yil 24 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mustaqillik yillarida tom ma'noda Prezidentlik instituti to'la shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 19-bobiga ko'ra, Prezident O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Prezidentlik lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan davlat tilini yaxshi biladigan bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Birinchi Prezident Islom Karimov suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga ulkan hissa qo'shdi. **1991 yil.** 1991 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan saylovda birinchi marta xalq fikri so'ralgan holda davlat rahbari saylandi. Bu saylov g'olibning raqibi nisbatan eng yuqori ovoz olgani bilan tarixda qolgan. O'shanda Islom Karimovga raqiblik qilgan «Erk» partiyasi nomzodi Salay Madaminov (Muhammad Solih) rasman 12,5 foiz ovoz to'plashga muvaffaq bo'lgani e'lon qilingan. Qolaversa, bu Xalq demokratik partiyasi nomzodi sifatida saylovda qatnashgan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov – 86 foiz oldji. (8 514 136 ovoz). 1991 yilgi saylovlardan keyingisi 1996 yilda bo'lib o'tishi kerak edi. Ammo **1995 yil 26 mart** kuni o'tkazilgan referendumda 99,6 foiz ovoz bilan Islom Karimovning prezidentlik vakolatlari 2000 yilga qadar uzaytirilgan. **2000 yil.** 2000 yilning 9 yanvarida bo'lib o'tgan saylovlarda eng yuqori ko'rsatkich qayd etildi – 95,9 foiz. Saylovda Islom Karimov O'zbekiston tarixidagi prezident saylovlarida eng yuqori ko'rsatkich – 91,95 foiz ovoz to'plagani bilan yodda qolgan. U o'shanda yangi tuzilgan (va tez orada faoliyatini to'xtatgan) «Fidokorlar» partiyasi nomzodi sifatida ishtirok etgandi. Saylovda XDP nomzodi Abdulhafiz Jalolov 4,71 foiz ovoz yig'adi. Bu jarayondagi yana bir qiziq jihat – Abdulhafiz Jalolov saylov jarayonida mahalliy va

xorijiy OAV qarshisida Islom Karimovga ovoz bergani va amaldagi prezident siyosatini yoqlashini bildirgandi. **2007 yil.** 2002 yil 27 yanvar kuni yana referendum o'tkazilib, unda 91,78 foiz ovoz bilan prezidentlik muddati 5 yildan 7 yilga uzaytiriladi. 2007 yil 27 dekabrda bo'lib o'tgan navbatdagi saylov nomzodlarning ikki nafardan ortiqligi va ular safida ayol kishining ham borligi bilan tarixga kirdi hamda amaldagi davlat rahbari Islom Karimov endi uchinchi bir partiya – O'zLiDeP nomzodi sifatida ishtirok etdi. Saylovchilarning 90,6 foizi qatnashgan bu jarayonda Islom Karimov 88,1 foiz ovoz bilan g'olib bo'ldi. **2015 yil.** 2015 yilning 29 martida bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlarda ham prezidentlikka 4 nafar nomzod ilgari surildi. 91,08 foiz saylovchilar (18,9 mln) qatnashgan bu saylov natijalariga ko'ra Islom Karimov 17 122 597 saylovchi ovozi bilan 90,39 foizlik natija ko'rsatgan va prezidentlik maqomini saqlab qolgan. Bu borada O'zbekistonda Prezident saylovlarini demokratik asoslarda o'tkazilishining zarur huquqiy asoslari yaratilgan; O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng sobiq ittifoqchi respublikalar ichida birinchilardan bo'lib «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonun»ni 1991 yil 18 noyabrda qabul qildi. Ushbu Qonunga 1997 yil 26 dekabrda va 1999 yil 19 avgustda hamda 2004 yil 2 dekabrda muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu Qonun Prezident saylovlariga oid qonunlar ichida markaziy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining II-chaqiriq, sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan: "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi, 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda mamlakatimiz Oliy Majlisini ikki palatali qilib belgilash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi muhim masala bo'yicha qabul qilingan Oliy Majlis qarori hayotga tadbiq etish borasidagi tarixiy jarayonlardan hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun asosida: **"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengasiga viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov** tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytgacha kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi." Saylov jarayonlari uning birinchi bosqichi bo'lmish saylov muddatini tayinlash bilan boshlanadi. Ushbu bosqichni turli davlatlarda turlicha ko'rinishlari mavjud bo'lib, aksariyat davlatlarda parlamentga saylov o'tkaziladigan kun davlat boshligi tomonidan, Prezident saylovi kuni parlament tomonidan tayinlanadi. Saylov o'tkazish muddati ba'zi mamlakatlarda esa o'z konstitutsiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan. Masalan, Kosta-Rika Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident saylovi saylov yilining fevral oyidagi birinchi yakshanba kuni o'tkaziladi. AQSh Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident saylovi saylov yilining noyabr oyida o'tkaziladi. Bunda noyabr oyi birinchi dushanbasidan keying birinchi seshanba kuni saylov kuni deb belgilangan. Shunday holatlar ham borki, Konstitutsiya saylov o'tkazishning aniq muddatlarni emas balki, saylov o'tkazish shartlarini belgilab beradi. Masalan, Bolgariya, Polsha, Chexiya davlatlarida tegishli organ yoki mansabdor

shaxsning vakolat muddati tugashi munosabati bilan saylov o'tkazish muddati belgilanadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, har bir mamlakatda davlat hokimiyat organlariga saylov o'tkazish muddati turlicha belgilangan. Bunga shu shakllangan munosabatlar, mamlakat xalqining mentaliteti, tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lishi mumkin. Saylovlarni o'tkazish muddati belgilangan ushbu moddaning ikkinchi bandi ham juda muhim qoidani o'zida ifodalab beradi. Bilamizki, davlat hokimiyati organlarining vakolat muddati turlicha bo'lsada, ma'lum davrga kelib, ushbu organlarga saylov bir vaqtga to'g'ri kelib qoladi. Ushbu holatda Prezident bilan davlat xokimiyati vakillik organlarining bir vaqtda saylanishini oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirni qo'llash ma'qul deb topildi. Ya'ni, davlat hokimiyatining vakillik organlari bo'lmish Oliy Majlis, Qoraqolpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hikimiyati vakillik organlarining vakolat muddatlari yana bir yilga uzaytiriladi. Demak davlat boshlig'i – Prezidentga saylov bo'ladigan yil va kun ushbu qonun talabiga ko'ra, vakillik organlariga bo'ladigan saylov davriga to'g'ri kelmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlatchilik tarixidan munosib o'rin oladigan, milliy davlatchiligimizni rivojiga hissa qushayotgan islohotlarimizning yana bir samarasi hisoblangan 2002 yil 27 yanvardagi referendum natijalari bevosita saylov institutiga muhim o'zagartirishlar kiritish zarurriyatini belgilab berdi. **2016 yil.** 2016 yil 4 dekabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida Shavkat Mirziyoev Yangi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. Ushbu siyosiy voqyea davlatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. **2016 yil 4 dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalariga ko'ra,** O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalarga asosan, 2016 yil 4 dekabr kuni bo'lib o'tgan ovoz berish jarayonida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 461 ming 805 nafar saylovchidan 17 million 951 ming 667 nafari ishtirok etgani aniqlandi. Bu ro'yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 87,73 foizini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining natijalariga ko'ra, Sarvar Sadullaevich Otamurotovni yoqlab 421 ming 55 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 2,35 foizi ovoz berdi, Shavkat Miromonovich Mirziyoevni yoqlab 15 million 906 ming 724 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi, Xatamjon Abduraxmonovich Ketmonovni yoqlab 669 ming 187 nafar saylovchi yoki 3,73 foizi, Narimon Majitovich Umarovni yoqlab 619 ming 972 nafar saylovchi yoki 3,46 foiz saylovchilar ovoz berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-, 117- moddalariga, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-, 35-, 36- moddalariga «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 5-, 9- moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi **Shavkat Miromonovich Mirziyoevni** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblash to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonini 5 ta xalqaro tashkilot – yevropada xavfsizlik va hamkorlik

tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari uyushmasi va Islom hamkorlik tashkilotidan hamda Amerika, yevropa, Osiyo va Afrikaning 46 ta davlatidan 600 nafarga yaqin kuzatuvchi kuzatib borgani siyosiy kampaniya demokratik talablari asosida ochiq va oshkora o'tganining yorqin dalilidir. Saylov jarayonini monitoring qilishda siyosiy partiyalardan 37 mingdan ortiq kuzatuvchi ham faol ishtirok etdi. Saylovning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Prezident saylovini 615 milliy va 272 xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, 315 ta xorijiy va milliy internet nashrlari yoritib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazi va okrug saylov komissiyalarining matbuot markazlari tomonidan mamlakatimiz va chet elning 1 ming 400 nafardan ortiq jurnalistlari ishtirokida saylov kampaniyasining muhim bosqichlariga bag'ishlangan 180 ta matbuot anjumani va onlayn brifinglar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 22 ming 700 dan ziyod maqola va axborot materiallari e'lon qilindi, ko'rsatuv hamda eshittirishlar efirga uzatildi. Demokratik, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning yangicha shakli sifatida Prezidentimiz o'z rahbarlik faoliyatini xalq bilan muloqot qilishdan boshladi. 2017 yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", deb e'lon qilindi. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya kundalik ish mezoimizga aylandi. Prezidentimiz "Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug'ullanishi zarur. Shu ma'noda 2017 yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo'yicha yangi tizim yaratilgan yil bo'ldi, deya qayd etdi. Bu tizimning asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi** fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini oqlamoqda. Qisqa muddatda ana shu qabulxonalarga bir yarim milliondan ziyod fuqaro murojaat qilgan va qancha-qancha odamlarning yillar davomida hal etilmagan muammolari ijobiy yechilgan. Bu esa O'zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalda joriy etilayotganini ko'rsatmoqda. Joylarda rahbarlarning yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarini tezlik bilan bartaraf etish yuzasidan shaxsiy javobgarligi kuchaygani mazkur tizimning muhim natijasi bo'ldi. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari – bugungi kunda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda tashkil etilgan, xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqorolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga qo'yidagilar kiradi: 1) qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; 2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; 3) mahalliy byudjetlarni shakllantirish; 4) mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; 5) fuqarolik holati aktlarini qayd etish va h.k. Bulardan tashqari shaharcha, qishloq va ovullarda, mahallalarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqaradigan organlari ham mavjud bo'lib, ular demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda roli yanada ortib bormoqda. **2021 yil.** Prezident saylovlari tarixining muhim bosqichi – **Yangi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga**

navbatdagi saylovlar 2021 yil 24 oktyabr kuni o'tkazildi. Mazkur Prezident saylovlarini 20 ga yaqin xalqaro tashkilotlari, 50 yaqin xorijiy davlatlardan, jami 100 ga yaqin xaqaro kuzatuvchi hamda 1672 nafar mahalliy va xorijiy OAV vakillari bevosita kuzatib, yoritib borishdi. Bundan tashqari, 5 ta siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 64500 nafar vakillar saylov jarayonlarini bevosita kuzatib borishdi.

Mamlakatimizning 207 ta tuman va shahar saylov uchastkalarida 414 ta videokamera orqali millionlab kuzatuvchilar uchun onlayn translyasiya amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 158 907 nafar saylovchilardan va chet ellarda ovoz bergan yurtdoshlarimiz bilan birga hisoblaganda, jami 16 212 343 nafar saylovchi ishtirok etdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 80.4% tashkil qiladi. 424 176 nafar saylovchi joriy yilning 14 oktyabridan 20 oktyabrigacha bo'lgan davrda muddatidan oldin ovoz bergan. Saylovda konsullik ro'yxatida turgan yoki turmaganidan qat'iy nazar, xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz 37 ta davlatda tashkil etilgan 54 ta saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlar saylovchilarning quyidagi miqdorida ovozga ega bo'ldi: O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod – Bahrom Abdurahimovich Abduhalimov – 3.4%; O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod – Narzullo Naimovich Oblomuradov – 4.1%; O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan nomzod – Alisher Keldievich Qodirov – 5.5% O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod – Maksuda Azizovna Varisova – 6.6%; Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberaldemokratik partiyasidan nomzod – Shavkat Miromonovich Mirziyoev – 80.1%. ga ega bo'ldi. Shu tariqa 2021 yil 24 oktyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida O'zbekiston Liberal- demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoev 80,1 foiz ovoz bilan g'alaba qozonganligi ma'lum qilindi va Markaziy saylov komissiyasi buni rasman tasdiqladi.

2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.

Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy harakatlar ham jamiyatda demokratik islohotlar jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida, Siyosiy partiyalarning takomillashuvida 1996 yil 25 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilgan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qonunlar asosida faoliyat yuritishlari uchun yetakchi va ilg'or mamlakatlar mezonlari talablaridagi huquqiy asoslar yaratildi. Masalan, qonunning 12- moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunda siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatishi, partiyaga a'zolik, partiya faolitiyaining kafolatlari, uning ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror topshirishning kafolatlaridan biri hisoblanadi. Partiya so'zi – lot. partio — bo'laman, ajrataman degan ma'noni anglatadi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining

siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996 yil 25 dekabr) Qonunida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi. Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega: o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish; qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mahalliy vakillik hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish; partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish; O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlarini o'rnatish; O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan huquqlarga ham ega. Ayni paytda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya va bitta ijtimoiy-siyosiy harakat faoliyat ko'rsatmoqda.

1. O'zbekiston xalq demokratik partiyasi (XDP).

2. "Adolat" sotsial- demokratik partiyasi.

3. Milliy tiklanish demokratik partiyasi.

4. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston LiberalDemokratik partiyasi.

5. O'zbekiston Ekologik siyosiy partiyasi.

“Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish kerak. Bu jarayonda ham raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog'ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko'ra, amalda bir nechta muammoni hal qilib bersangiz, odamlar sizlardan rozi bo'ladi. Eng muhimi, hayotdagi o'zgarishlarni xalqimiz bilishi, davlat hokimiyati tizimida haqiqatan ham o'z vakili borligini sezishi kerak. Bo'lmasa, barcha ishlarimiz, tadbirlarimiz zoe ketadi. Partiyalararo raqobatni ta'minlash, barcha siyosiy sub'ektlar uchun teng sharoitlar yaratish parlament rolini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi”, degan edi Prezidentimiz Murojaatnomada. Siyosiy madaniyat taraqqiyoti huquqiy madaniyat bilan bog'liq bo'lib, bu faqat qonunlarni bilish, huquqiy saviyadagina iborat bo'lmay, qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. Umuman, huquqiy madaniyat – huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollikning birlikda namoyon bo'luvchi qadriyatlar tizimidir. Ayniqsa, **2022-2026** yillarga mo'ljallangan **Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining** birinchi ustuvor yo'nalishining 7-maqsadida mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, Oliy Majlis palatalarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini mustahkamlash, ularning ichki va tashki siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishdagi vakolatlarini kengaytirishga urg'u berilgan. Barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o'rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta'sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyotda so'zsiz va to'liq ijro etilishini ta'minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish muhim, deyiladi. Albatta, demokratik davlatda siyosiy partiyalarni tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari ishtirok etadilar. Fuqarolarning siyosiy

partiyalarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Siyosiy partiyalar inson manfaati, qadrqimmat, hayotini yaxshilash borasida o'z dasturlari, rejalari, takliflari, tashabbuslari bilan chiqadilar. Ular fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash choralari doimiy ravishda nazorat qilishlari lozim. Xulosa o'rnida aytish joizki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida ushbu tizimni nomarkazlashtirish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi rolining oshishi, davlatning vakolatiga kiruvchi ko'plab vazifalarni mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga berilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilma'rifatli va yuksak ma'naviyatli jamiyatdagina Qonun ustuvorligi, Qonun oldida barchaning tengligi va shu kabi demokratik tamoyillar qaror topadi va amalga oshadi.

3. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida davlat hokimiyati organlari ichida qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi – Oliy Majlisning o'rni va ahamiyati kattadir. O'tish davrining mashaqqatli bosqichlarida respublikaning siyosiy hayotini yangilash va demokratlashtirish jarayonida Oliy Majlis o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda, 1990 yil 18 fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko'rsatar edi. O'zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish yo'lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990 – 1994 yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi **Oliy Kengashi** o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq Ittifoq tuzumining qonunlari amalda bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonning mustaqal taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. Shunday bo'lsada, Oliy Kengash O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadam-baqadam shakllantira boshladi. 1990-1994 yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi, mamlakatimiz tarixida birinchi bor mamlakat Prezidentini sayladi, Mustaqallik Deklaratsiyasini qabul qilib, yosh davlatimizning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan tarixiy qonunlarni, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilganligi ham yurtimiz tarixidagi ulkan hodisa hisoblanadi. 1993 yil 28 dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida» va 1994 yil 22 sentyabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyada **«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»** qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar Oliy Majlisning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan (O'zbekiston SSRning 1978 yildagi Konstitutsiyasiga binoan o'n ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Soveti deputatlarining soni 500 kishidan iborat edi) iborat bo'ladi, deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda mazkur qonunlarda Oliy Kengash – Oliy Majlis deb nomlash asosida tub islohotlarni qonunchilik sohasida amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentyabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyasi 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qildi. 1994 yil 25 dekabr hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan- to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tdi. Nomzodlardan birortasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995 yil 8 va 25 yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Uch bosqichda bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan, 250 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazildi. Shu tariqa, mamlakatimizda ilk bor yangi parlamentga bo'lgan saylovlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Oliy Majlisni demokratik yo'l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo'ldi. 1995 yil 23-24 fevral kunlari yangi saylangan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlisning quyidagi 12 ta qo'mitasi tashkil etildi: Byudjet, bank va moliyaviy masalalar qo'mitasi; Iqtisodiy islohotlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish qo'mitasi; Qonunchilik va sud – huquq masalalari qo'mitasi; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi; Fan, ta'lim, madaniyat va sport qo'mitasi; Sanoat, energetika, transport, aloqa va aholiga xizmat ko'rsatish qo'mitasi; Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat qo'mitasi; Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish qo'mitasi; Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi; Qurilish va uy-joy xo'jaligi qo'mitasi; Matbuot va axborot qo'mitasi; Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi. Oliy Majlisining mazkur birinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, Oliy Majlis Raisi rahbarligida «Oliy Majlis Qo'mitalari va Komissiyalari to'g'risidagi Nizom» qabul qilindi. Parlamentning ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Kengashi tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, Mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarining rahbarlari kiritildi. O'tgan davr shuni ko'rsatdiki, Oliy Majlis qabul kilayotgan qonunlar sifatini oshirishda ularning loyixalarini oldindan matbuotda chop etib, umumxalq muhokamasidan o'tkazish ijobiy samara berdi. Qonunlar loyihalarini deputatlarga oldindan yuborish tartibi joriy qilindi hamda ularning takliflari va fikrmulohazalari har bir qonunni uzil-kesil ishlab chiqish chog'ida albatta e'tiborga olinadigan bo'ldi. Qonun loyihalarini nazariy va amaliy jihatdan yanada teranroq, puxtarroq ishlab chiqish maksadida, ular tegishli vazirliklar va idoralar, konsernlar, uyushmalar va mehnat jamoalariga yuboriladigan bo'ldi. Xalqaro tashkilotlarning ekspertizasidan o'tkazish yo'lga qo'yildi. 1995-1997 yillarda Oliy Majlis 100 ga yaqin qonun va 120 dan ortiq qarorlar qabul qildi. Eng yangi tarix yillarida Oliy Majlisning xalqaro parlament tashkilotlari bilan aloqalari kengaydi va chuqurlashdi. O'zbekiston Milliy Parlament guruhi tuzildi, respublikaning Parlamentlararo Ittifoqdagi, yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament Assambleyasidagi va yevroparlament bilan aloqalar bo'yicha parlament guruhlarining rahbarlari tasdiqlandi. Oliy Majlis hay'atlari Parlamentlararo Ittifoq 93 va 94 – konferensiyalarida ishtirok etdi. Bunday tadbirlar hozirda ham davom etmoqda. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 – 1999 yillarda 15 ta sessiya o'tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2 ta Milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya (tasdiqladi) qildi,

xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi. Yuqorida qayd etilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, respublika parlamenti bir palatali bo'lsa-da, qonun chiqarish jarayoni ancha jadallik bilan bordi. Birinchi navbatda hayotning o'zi talab qilayotgan eng kerakli qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Natijada, mustaqillik munosabati bilan dastlabki paytda vujudga kelgan huquqiy bo'shliq holati tezroq to'ldirildi. Mazkur Oliy Majlisning yakunlovchi XV sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999 yil 5 dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. Saylov byulletenlariga 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan 1010 nafar nomzod kiritildi. 66 ta saylov okrugida 19 dekabr kuni takroriy saylovlar bo'lib o'tdi va unda 250 nafar deputat saylandi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasining birinchi majlisi 2000 yil 22 yanvar kuni bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari 13 ta qo'mita ham faoliyat ko'rsatar edi. Bu qo'mitalar tarkibiga yuqorida aytib o'tilgan ko'mitalar bilan birga yangi tuzilgan Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi va Yoshlar ishlari komissiyasi kirgan. Parlamentda, shuningdek, 3 ta doimiy komissiya ishlagan: Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti komissiyasi; Oila va ayollar muammolari komissiyasi; Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oya edi.

2001 yil 6-7 dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi. Ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi hayotning o'zidan, hokimiyat tarmoqlarini aniq ajratish asosida milliy davlatchilik institutlarini yanada mustahkamlash zaruratidan kelib chiqadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendensiyasiga aylandi. Agar XX asrning 70- yillarida ikki palatali parlamentlar 45 ta davlatda bo'lgan bo'lsa, hozirda bu son 70 ga chiqdi. Hozirda yana o'nta davlatda ikki palatali parlament tashkil qilishga tayyorgarlik ko'rayapti. Bu ko'rsatkichlar ikki palatali parlamentning ahamiyatini oshib borayotganligidan dalolat beradi. 2002 yil 27 yanvar kuni «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan masalada **referendum** bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 % rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar. 2002 yil 4-5 aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Bu qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali – quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Oliy Majlisning VIII

sessiyasida «2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi qarorini ham qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. 2002 yil 12-13 dekabr kunlari Oliy Majlisning X sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda xalqimizning xohish-irodasi bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitutsiviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qildi. Bu 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunda ham o'z ifodasini topdi. 2003 yil 29 avgustda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu tariqa, ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004 yil dekabr – 2005 yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazildi. Jumladan, 2004 yil 26 dekabr va 2005 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005 yil 17-20 yanvar kunlari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi. **2005 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palata:** Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirildi. Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. 2009 yil 27 dekabr va 2010 yil 10 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda atrof-muhit muhofazasi, ekologik holatni sog'lomlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston ekologik harakatini yuridik jihatdan yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda, 2008 yil 25 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni qabul qilindi. Qonunchilik palatasining 135 deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylandi. Qonunchilik palatasining 15 deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanar edi. Ushbu Qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77- moddasining birinchi qismiga o'zgartish kiritilib, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlarning soni 150 deputatdan iborat qilib shakllantirildi. O'zbekiston ekologik harakati haqida to'xtaladigan bo'lsak, **O'zbekiston Ekologik harakati 2008 yilning 2 avgustida tashkil topdi.** 2008 yilning 20 sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olindi. Bu harakatning rahbar organlari: Markaziy kengash, uning Ijroiya qo'mitasi, Markaziy nazorat-taftish komissiyasidir.

O‘zbekiston ekologik harakati o‘z faoliyatini fuqarolarning qulay atrof-muhit sharoitida yashashi, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan holda olib bordi. Agar Oliy Majlis va uning yaqin yillardagi tarixiga nazar tashlansa, **2019 yil 22 dekabr** kuni mamlakatimizda katta siyosiy jarayon - Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlarining saylovi bo‘lib o‘tdi. Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 25 dekabrda qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi 25 ta saylov okruglarida birinchi turda g‘oliblar aniqlanmaganligi uchun, ya‘ni ushbu saylov okruglaridan nomzodlari ko‘rsatilgan beshta siyosiy partiya nomzodlarining birortasi ham ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 50 foizidan ko‘p ovozini ola olmaganligi sababli ushbu saylov okruglarida ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning eng ko‘p ovozlari olgan ikki nafardan nomzodlar o‘rtasida takroriy ovoz berishni o‘tkazish 2020 yil 5 yanvar kuni belgilandi. 5 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi 25 ta saylov okruglaridagi 1 730 ta saylov uchastkasida takroriy ovoz berish bo‘lib o‘tdi. Ushbu saylov uchastkalarida 3 million 147 ming 79 nafar fuqarolar Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ulardan 1 million 978 ming 48 nafari takroriy ovoz berishda ishtirok etdi. Demak, Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolarning 62,8 foizi takroriy ovoz berishda ishtirok etdi. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 59- moddasiga muvofiq takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etish foizi hisobga olinmasada, biroq bu jarayonda ham 62,8 foiz saylovchilarning ishtirok etganligi, fuqarolarimizning siyosiy huquqiy madaniyati yuksalib, ularning Yangi O‘zbekistonda yangidan shakllantirilayotgan parlament saylovlariga befarq emas ekanliklarini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli, odilona va insonparvar siyosatni qo‘llab-quvvatlashlarining yana bir bor isboti bo‘ldi. Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko‘proq olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi. Takroriy ovoz berish jarayonini deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan jami **besh mingdan ortiq kuzatuvchilar** kuzatib bordi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkazilgan mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalarining vakillari hamda hududiy saylov komissiyalaridan akkreditatsiyadan o‘tgan mahalliy jurnalistlar saylovlar jarayonini faol yoritib bordilar. 2019 yil 25 dekabr kuni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 125 ta saylov okruglaridan nomzodlar Qonunchilik palatasi deputatligiga saylangan deb topilib, ro‘yxatga olingan edi. Bular: – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 42 nafar; – O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 34 nafar; – O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar; – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 18 nafar; – O‘zbekiston Ekologik partiyasidan 11 nafar deputatga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati maqomi berilgan edi. Dastlabki hamda takroriy ovoz berish natijasida, ya‘ni saylovlarning umumiy yakunlariga ko‘ra,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar quyidagicha deputatlik o‘rinlariga ega bo‘ldilar:

1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberaldemokratik partiyasi 53 ta deputatlik o‘rni; 2. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 36 ta deputatlik o‘rni; 3. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 24 ta deputatlik o‘rni; 4. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 22 ta deputatlik o‘rni; 5. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 15 ta deputatlik o‘rni egallashdi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar, 39 nafarini yoki 26 foizini oldin ham Qonunchilik palatasi deputati bo‘lganlar tashkil etdi. Saylov jarayonini boshqarish bo‘yicha axborot tizimi (SJBAT) joriy etilib, Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati (SYaER) shakllantirildi. Ushbu tizim 2019 yil 22 dekabr kuni mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga **“Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar”** shiori ostida o‘tgan saylovlarda muvaffaqiyatli qo‘llandi. Jumladan, fuqarolarni uchastka saylov komissiyalariga taqsimlash, saylovchilarni o‘zi yashab turgan joyga aloqador uchastka haqida ma‘lumot olishi hamda okrug va uchastka saylov komissiyalari faoliyatini osonlashtirishda muhim o‘rin tutdi. Ayniqsa, SYaERning xalqaro andozalardagi “bir saylovchi — bir ovoz” tamoyilini amalga oshirishdagi o‘rni beqiyosdir.

4. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.

uchinchi hokimiyat organi tarmog‘i bo‘lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar, xo‘jalik sudlariga bo‘linadi. Sud-huquq sohasini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. 2007 yildan boshlab Sud tizimi sohasida quyidagi islohotlar o‘tkazilmoqda:

- 1) Jinoiy jazolarga sanksiya berish huquqi prokuratura organlaridan sud tizimiga o‘tkazildi;
- 2) Advokat, oqlovchilarning mavqeyi, roli oshirildi;
- 3) O‘lim jazosi (2008 yil 1 yanvardan) bekor qilindi.

Bu borada, ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida tizimni isloh qilish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, ayniqsa, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasida** Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Strategiyaga muvofiq, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishning ustuvor vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: sudyalarning va sud apparati xodimlarining mavqeyini, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy ta‘minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; sudyalarga g‘ayriqonuniy tarzda ta‘sir o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rish; sudning mustaqilligi va beg‘arazligi, sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlilik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish; “Xabeas korpus” institutini qo‘llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan

sud nazoratini kuchaytirish; sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish. Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim shartidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o‘zining samarasini bermoqda. Sud tizimida avval sud hokimiyatining ikkita oliy organi, ya'ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudlari mavjud edi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan Oliy xo‘jalik sudi tugatilib, sud hokimiyatining yagona oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tuzildi, sudyalik lavozimiga muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi joriy etildi.

2017-2019 yillarda sud ishlarini sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqish amaliyotining kengaytirilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va sud hokimiyatining ochiqqligini oshirish yo‘lida ko‘rilgan muhim chora bo‘ldi desak adashmaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 iyuldagi “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5482-sonli Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb-saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e‘lon qilish va qabul qilingan sud hujjati o‘qib eshittirilganidan so‘ng uning mazmun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilishini sud amaliyotiga joriy etilgani ham odil sudlovni amalga oshirish yo‘lidagi muhim hujjat bo‘ldi. Bu tartibni joriy etilishi bilan hozirda sudlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb-saytida sud qarorlarini e‘lon qilinib borilayotganini va qabul qilingan sud hujjatining mazmun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilishini amalda ko‘rmoqdamiz. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida, “Konstitutsiyaga asosan sudlar o‘z faoliyatida mustaqil, lekin ularning chinakam nazoratchisi xalq bo‘lishi kerak”ligi, **“Sudlarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash biz uchun eng ustuvor vazifadir.** Ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo‘li yetadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik shart. Shu sababli sud ishlariga aralashgani yoki sudga bosim o‘tkazgani uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim”ligi haqida aytib o‘tildi. Yurtboshimizning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, “Biz ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va liberallashtirish, jinoiy jazolarni insonparvarlik nuqtai nazaridan o‘zgartirishga alohida e‘tibor qaratamiz. Shu maqsadda 2018 – 2021 yillarda jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchilikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishimiz va amalga oshirishimiz zarur, degan edi. Xalqimizning kechirimli bo‘lish va bag‘rikenglik kabi azaliy qadriyatlaridan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini qayta ko‘rib chiqish lozim, degan edi. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi 2001 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Qonunining 20-

moddasiga muvofiq, «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi».

2017 yildan e’tiboran davlatimizda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori prokuratura sohasida ham keng ko‘lamli qayta qurish va islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning faoliyati qaytadan ko‘rib chiqildi, tanqidiy tahlil qilindi. “Biz har qaysi huquqni muhofaza qilish organi bevosita o‘z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takrorlamaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo‘nda qilib aytganda, ichki ishlar – jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bilan, milliy xavfsizlik – davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan shug‘ullanishi lozim. Prokuratura esa qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur”, deya qayd etadi Yurtboshimiz. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, **“...endi bironta fuqaro qalbaki dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortilmasligi shart. Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli kafolatlar yaratishimiz zarur”**. Murojaatnomada sud va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ishiga faqat va faqat xalqimizning o‘zi baho beradi. Ular uchun yagona va eng qattiq talab – bu fuqarolarning qonuniy manfaatlariga xizmat qilish va ularning huquqlarini har qanday holatda ham himoya qilishdan iborat. Eng asosiysi, biz bir idora qo‘lida barcha vakolat va resurslar to‘planib qolishiga, o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipi buzilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarurligi uqdirildi. Inson omiliga e’tibor, ularning huquqlarini ta’minlash borasida 2017 yilda yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo‘lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berildi, mamlakatimizning so‘nggi 26 yillik tarixida ilk bor 2700 ga yaqin fuqarolar Prezidentimiz Farmoniga muvofiq avf etildi. Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagandan so‘ng O‘zbekiston inson huquqlarini ta’minlash borasida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Xususan, 2017-2020 yilar oralig‘ida **50 mingga yaqin shaxsni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi**, 3187 nafar fuqaroni afv etilishi chuqur insonparvarlik ahamiyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasini qabul qilinishi, shuningdek, Samarqand shahrida Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumining o‘tkazilishi xalqaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqqanligini tasdiqlaydi.

Amalga oshirilgan insonparvarlik tadbirlari doirasida Suriyadagi qurolli mojarolar maydonidan va Afg‘onistondan 261 nafar fuqaro, asosan, ayollar va bolalar O‘zbekistonga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordamlar ko‘rsatildi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston insonparvarlik siyosatining hamda o‘zbek xalqiga xos ezgulik va mehr-oqibat, kechirimlilik kabi milliy mentalitetimizning olijanob fazilatlarining amaliy tasdig‘i sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan shaxslarni afv etish

to'g'risida" bir nechta Farmonlari qabul qilinib, 2017-2019 yillarda 4 mingdan ziyod shaxs **jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi.** Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy e'tiroziga sabab bo'lib kelgan "Jasliq" manzilida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan "Jazoni ijro etish koloniyasi" tugatildi. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy e'tiroziga sabab bo'lib kelgan Jasliq qo'rg'onida joylashgan mazkur ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishi insonparvar siyosatning yana bir amaliy namunasi bo'ldi.

2-mavzu: O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.

Reja:

1. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.
3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g'oyasi va uning mohiyati.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.

1. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.

2000-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan bosqichda mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi qilib milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish masalasi qo'yildi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi, fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy faolligi ortib bordi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

2002-yili bo'lib o'tgan Oliy Majlisning IX sessiyasida mamlakatning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ayni ana shu ko'p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o'rtaga tashladi. Unda islohotlarga doir **yettita** masala – ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

Ustuvor yo'nalishlardan biri jamiyat hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarning o'rni va rolini oshirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini

chuqurlashtirish, «Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari» tamoyilini amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro - jamiyat - davlat» prinsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish bo'ldi.

Yodda tuting! *Konsepsiya olti qismdan iborat bo'lib, unda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, bozor iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasidagi muhim vazifalar belgilangan.*

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusida qilgan ma'ruzasi amalga oshirilgan islohotlarni sarhisob qilish hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Konsepsiyada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar mufassal tahlil etilib, bu yo'nalishdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

2. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish. 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz elektron manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

Insoniyat tarixida yangi davr – Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995–2005-yillarni kurramizda «Inson huquqlari o'n yilligi» deb e'lon qildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq

qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo'shildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida» 1996-yil 31-oktabr Prezident Farmoni e'lon qilindi.

Inson, uning huquqi va erkinligi masalasi demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlat va jamiyatning qay darajada rivojlanganini ko'rsatuvchi mezondir.

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» (1948-yil 10-dekabr), «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt» (1966-yil 19-dekabr), «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» (1966-yil 19-dekabr) kabi xalqaro hujjatlar tan olindi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda.

O'zbekiston BMT kotibiyatining inson huquqlari va erkinliklariga doir 21 ta deklaratsiya, pakt va konvensiyalarga qo'shildi.

1995-yil 23-fevralda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) lavozimi ta'sis etildi va bu lavozimga Sayyora Rashidova saylandi. Inson huquqlari bo'yicha vakil o'z faoliyatida huquqni himoya qiluvchi organlar bilan aloqada ishlaydi, shaxslar va davlat, shaxslar va hokimiyat orasida munosabatlarni yaxshilashga ko'maklashadi. Inson huquqlari bo'yicha vakilning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 26-aprelda qabul qilingan «Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) to'g'risida» gi Qonun bilan belgilab berildi.

So'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar barqaror tus olib, pandemiya va global inqirozga qaramasdan, yuqori iqtisodiy o'sishlar ta'minlandi. Yurtimiz shaharlari, qishloqlari, mahallalarimiz yanada obod bo'lib, Yangi O'zbekistonning betakror qiyofasi tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyevning O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigida 2022 yil mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilindi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **“Inson qadrini ulug'lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi. Shu bois, bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh mezoniga aylanadi”**. Bu so'zlar zahirida eng ulug' maqsadlar va konseptual g'oyalar yotadi.

O'zbekiston tarixida fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat

tashkilotlarining siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini muhim.

Chunki fuqarolar mazkur institutlar orqali yoki siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. Shuningdek, millionlab fuqarolar, yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadilar.

Avvalombor, O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan e'tiboran turli jamoat birlashmalari, uyushmalar, fondlar, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati uchun huquqiy asos yaratildi. Jumladan, 1991-1995 yillar jamoat tashkilotlarining shakllanish davri bo'lib, ushbu bosqichda ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil topgan edi. 1995-2005 yillarda esa jamoat tashkilotlari, jumladan, xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlanishi uchun qator huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Ushbu bosqichda 1995 yil 2 martda "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 1999 yil 14 apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, 2004 yil 25 maydagi "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni xotin-qizlar tashkilotlari sonining o'sishiga va hukumat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, ushbu yillarda yuzdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil topdi.

Bunda demokratik jamiyat qurish mezonlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik fuqarolik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon taraqqiyotida: 1) Demokratiya va qonunchilik. 2) Mulkchilikning turli shakllari va unga munosabat. 3) Yuksak ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi. 4) Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirish masalalari ko'rsatib berilgan.

Demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, adolatli, ma'naviyati yuksak insonlar jamiyatini qurishda jahon tajribasiga tayangan holda, avvalo, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni inobatga olish kerakligi ma'lum bo'ladi. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyat ma'naviy yangilanishiga bog'liqligini faqat o'zbek millati ma'naviyati bilan bog'lash va uni shunday deb baholash adolatdan emas. Balki uning bilan yagona bir mamlakat hududida yashayotgan turli xalq va millatga mansub bo'lgan barcha aholining, turli etnik birliklar va ijtimoiy guruhlarining ham umumiy boyligi, deb qarash mutlaqo to'g'ri.

O'zbekiston demokratik taraqqiyotning jahon tajribasini sinchiklab o'rgandi. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish va buning tayanchi sifatida insonparvar tuzumni shakllantirish yo'lida islohotlarni amalga oshirish "inson – jamiyat - davlat" tizimidek kuchli uyg'unlikni talab etmoqda. Zero, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasini ma'naviy yangilanishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu haqiqatni hiech qachon unutmaslik kerak.

Demokratiya - bu kishilarning birgalikda hayot kechirishi, muammolarni

hamjihatlik bilan hal qilishi, shaxsiy manfaatlarni jamoa, millat, davlat manfaatlari bilan uyg'un ko'rishi, bir so'z bilan aytganda, murosa qilish madaniyatidir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik, huquqiy davlat kuch yoki inqilob bilan emas, balki tarixiy evolyusion yo'l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi u yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Vaholanki, qonunlar huquq sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ulardan foydalanadi. Hamma gap o'sha qonunlarning qandayligi va ularning qanday bajarilishidadir.

Huquqiy davlatni belgilovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- 1) Xalq hokimiyatining amalga oshishi.
- 2) Huquqning hukmronligi, ya'ni shaxs huquq va erkinliklarining hiech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hiech qanday holda buzilmasligi.
- 3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.
- 4) Hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili.
- 5) Sud mustaqilligi.
- 6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
- 7) Davlat va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati.
- 8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.
- 9) Huquqiy madaniyatlarning yuksak darajada ekanligi.
- 10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Mutaxassislar, ekspertlar tomonidan demokratik huquqiy davlat qurishning jahon tajribasi o'rganilib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslari va tamoyillarini qabul qilish bilan birga, unda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi. Shundan so'ng jamiyatimizda siyosiy hayotning barcha sohalari, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jadallik bilan olib borilmoqda. Bizningcha, O'zbekiston fuqarolarining mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan rivojlanib borishining siyosiy va iqtisodiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan bozor munosabatlariga o'tishda o'xshashi bo'lmagan, betakror yaxlit andozalarni ishlab chiqish, o'zimizga xos yo'lni tanlab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, uning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi taraqqiyotiga to'la-to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza zarur. Eng muhimi, bizning bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat qurishdan boshqa yo'limiz yo'qligi aytiladi. Bu yo'l 3 tarkibiy qismdan iborat:

1. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining tavsifi.
2. Qat'iy markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan yo'liga o'tishning eng muhim prinsiplari.

3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tenglikdan chiqib ketishning, barqarorlik va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati islohotlari asosida rivojlantirishning o'ziga xos muhim qonuniyatlari ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir. Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish, avvalo, aholining siyosiy faolligini kuchaytirishni, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni taqozo etadi. Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish vazifasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeyi va huquqlarini mustahkamlashni o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish masalasida o'z haq-huquqlarini taniydigan, mustaqil fikrlay oladigan, iymon-irodasi, e'tiqodi mustahkam, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishni, mamlakatimizning kelajagini ta'minlovchi yetuk mutaxassislar yetishtirishni taqozo etadi. Aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlariga, «O'zbek modeli»ning mazmuni va mohiyatiga mos bo'lgan muhim bir mezon bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichiga xos bo'lib, bunda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, eksportga moslashgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, moliya va bank tizimi faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash mazkur bosqichdagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifa jahondagi globallashtirish sharoitida, turli mintaqalardagi vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suveriniteti va barqaror taraqqiyotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etadi.

Endi ikki og'iz ijtimoiy himoya tizimi xususida. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot, asosan, davlat byudjeti hisobidan tashkil etilgan bo'lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan farq qiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari, respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko'rsatishning an'anaviy turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo'shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya'ni xalqimizning milliy urf-odatlarini tashkil etadi. Mahalliy idoralar, korxonalar, jamoa va xo'jaliklar hamda boshqa tadbirkorlik tashkilotlaridan fuqarolar nafaqasiga qo'shib berilayotgan qo'shimchalar, muhtojlarga ko'rsatilayotgan otaliq yordamlari, bayram va Hayit kunlari bemorlarni ziyorat qilish, turli xayr-ehsonlar ham milliy urf-odatlarimizning ko'rinishlaridir. Bulardan tashqari, ijtimoiy yordam ko'rsatishda nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Albatta, bu borada muammolar ham mavjud. Jahon tajribasi bilan qiyoslaganda, avvalo, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish lozim. Xususan, kasaba uyushmalari rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun korxona egalari, ish beruvchilarga doimo ta'sir o'tkazib keladilar. Bizda esa hali ushbu masalada muammolar bor. Birinchi navbatda jamoat tashkilotlari, xususan, kasaba uyushmalari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularni mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi kuchga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Keyingi yillar, jumladan, 2005-2015 yillarda, masalan 2005 yil 23 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi, 2015 yildan kuchga kirgan "Ijtimoiy sherikchilik" to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omili sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarning sonini ortishiga ko'maklashdi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi.

2016 yildan keyingi davrda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sheriklik asosida to'plangan tajribalar tahlil qilinib, hamkorlik mexanizmining aniq chegaralari belgilab berildi. Bu borada 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik mexanizmi yanada mustahkamlandi.

Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy belgilari quydagilardan iborat:

- 1) tashkilotning o'zini o'zi boshqarish huquqiga ega ekanligi;
- 2) jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tashkil etilishi;
- 3) o'z faoliyatidan foyda olishni ko'zlamasligi;
- 4) Nodavlat tashkilotlari foyda olishi mumkin, ammo foyda a'zolar tomonidan bo'lib olinmaydi, balki Nizomda ko'rsatilgan vazifalarni hal etishga sarflanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari aslida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohasidagi maqsadlarga erishish,

ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya ishlariga oid faoliyatni

amalgaga oshirish uchun va boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni koʻzlagan holda tuziladi. Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat tashkilotlari rahbarlari va xodimlarini davlat tuzilmalariga ishga qabul qilish amaliyoti keng qoʻllaniladi. Nodavlat tashkilotlari ish jarayonida ular tomonidan egallangan amaliy tajriba asosida muammolarini chuqurroq anglashga, ularning yechimini topishda yanada kengroq dunyoqarashga ega boʻlishga, yangi nostandart mexanizmlarni qoʻllashga imkon yaratadi. Demak, nodavlat tashkilotlari nafaqat jamiyatning, balki davlatning oʻziga xos xazira tizimi hamdir.

Shunday qilib, jahon tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki tufayli quyidagi oʻzgarishlarga erishilmoqda:

birinchidan, davlat funksiyalarini asta-sekin jamoatchilik tashkilotlariga topshirish jarayoni yuz berayapti;

ikkinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi vazifalarni hal qilishda nodavlat fuqarolik institutlari rolining yuksalish tendensiyasi ortib bormoqda;

uchinchidan, mahalliy ahamiyatga molik vazifalarni davlatlararo fuqarolik organlari orqali yechish yoʻnalishlari paydo boʻlayapti;

toʻrtinchidan, fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda taʼlim va madaniyat, shuningdek, axborot texnologiyalarini tarqatish sohasida fuqarolik institutlariga qiziqish kuchaymoqda;

beshinchidan, keng miqyosli, xalqaro, transmilliy nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaymoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qoʻllab-quvvatlanishi mumkin.

Davlat qonun hujjatlariga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini boshqa jihatdan ham qoʻllab-quvvatlashi mumkin. Mamlakatda demokratik oʻzgarishlarni yanada rivojlantirishga va bunda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirok etishiga koʻmaklashish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, Fond mablagʻlarini boshqarish boʻyicha Parlament komissiyasi tuziladi.

Davlat subsidiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qoʻllab-quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bogʻliq boʻlmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy koʻmakdir. Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat subsidiyalarini ajratish tartibi va shartlari Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi mablagʻlarini boshqarish boʻyicha Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Davlat granti nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan beriladigan pul mablagʻlari va

moddiy resurslar ajratmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmasini ajratish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlar, xalq harakatlarining huquqiy asoslari, ko‘ppartiyaviylik tizimi, shakllari hamda davlatni demokratik barqaror rivojlanishiga xos konsepsiyalar aniq ifoda etilgan. Konstitutsiyaning 34- moddasida esa «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hyech kim kamsitishi mumkin emas» deyilishi fikrimizning dalili hisoblanadi.

Masalan, 1991 yilda mamlakatda jami **100 ta NNT** faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2015 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari tomonidan ro‘yxatga olingan NNTlarning umumiy soni **8200 tadan** ortib ketdi. Mustaqillikka qadar O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat hayotida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni yig‘ilib qolishi, hayotiy ehtiyojlarni faqatgina davlat tomonidan hal etish imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotida NNTlar ishtiroki hamda ta'siri yildan yilga oshmoqda. Xususan, bugungi kunda **2020 yil holatiga ko‘ra**, respublikada turli sohalarida **9700 dan ortiq** nodavlat notijorat tashkilotlar va **2200 dan ortiq diniy tashkilotlar va 1500 dan ortiq OAVlar** faoliyat olib bormoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslari o‘zagi sifatida, dastavval O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o‘rinlidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hyech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hyech qaysi mafkura davlat mafkurası sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsip o‘z ifodasini topgan.

Yangi O‘zbekistonda O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2018 yil 1 iyundagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘tkazilishi

rejalashtirilayotgan tadbirlari haqida xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, NNTlar uchun yanada qulay imkoniyat yaratish

maqsadida, Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbir haqida xabarnoma ilova qilindi.

Amalda bo'lib kelgan tadbir o'tkazilishi mo'ljallangan sanadan kamida yigirma kun oldin, xorijiy davlat hududida tashkillashtiriladigan tadbirlar bo'yicha tadbir o'tkazilishidan, xuddi shuningdek xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan tadbirda ishtirok etishi rejalashtirilgan bo'lsa, ularning tashrifidan kamida bir oy oldin tegishli adliya organiga yozma ravishda murojaat etishi va tegishli ruxsatnomani olgandan so'nggina tadbir o'tkazishi talabi bekor qilindi.

Yangi tartibga ko'ra, NNT tomonidan adliya organini tadbirlar o'tkazilishi haqida tadbir o'tkazilishi mo'ljallangan sanadan kamida o'n kun oldin, xorijiy davlat hududida tashkillashtiriladigan tadbirlar bo'yicha tadbir o'tkazilishidan, xuddi shuningdek xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan tadbirda ishtirok etishi rejalashtirilgan bo'lsa, ularning tashrifidan kamida yigirma kun oldin xabardor qilishi kifoya.

Shuningdek, ayrim tadbirlar uchun 3 ish kuni oldin tegishli adliya organiga qisqartirilgan holda Xabarnoma berish tartibi saqlab qolindi. Shuningdek, mazkur Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2018 yil 27 iyundagi 336-son buyrug'i bilan **Nodavlat notijorat tashkilotining** faoliyati to'g'risidagi adliya organlariga taqdim qilinadigan hisobot shakli tasdiqlandi. Unga ko'ra, Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladigan uchta hisobot shakli bitta shaklga keltirildi. Shuningdek, muqaddam hisob shakllari 36 va 41 banddan iborat bo'lsa, yangi hisobot shakli 22 bandga keltirildi. Nodavlat notijorat tashkilotlaridan ortiqcha vaqt oladigan, takrorlovchi va uncha zarur bo'lmagan bandlar chiqarib tashlandi. Hisob shakli sodda va tushunarli qilib ishlab chiqildi.

NNTlari tomonidan chet davlatlardan, xalqaro va xorijiy tashkilotlardan, chet davlatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig'iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag'lari va mol-mulk olishni kelishish elektron tarzda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, NNT tomonidan pul mablag'lari va mol-mulkdan erkin foydalanishni ta'minlash maqsadida, NNTlarga Xorijiy sub'ektlardan kelib tushgan pul mablag'lari va mol-mulkdan foydalanish bo'yicha barcha to'siqlar olib tashlanadi.

Ushbu Farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 avgustdagi 635-son qarori bilan Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Mazkur nizom bilan adliya organlari tomonidan NNTlar faoliyatini o'rganish bo'yicha munosabatlar NNTlar manfaatidan kelib chiqib hamda ularning huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish maqsadida, birinchi marotaba qonun hujjati darajasida tartibga solindi.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan

huquq o'z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya

qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarini tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki ulardan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi.

Agar jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari tarixiga nazar tashlansa, **“Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari”** g'oyasi ko'tarilgan edi. Bu g'oyaga ko'ra, biz fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'yganmiz, bu sohada dastlabki qadamlar qo'yildi. Bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tish boshlandi.

Agar tarixiy raqamlarga murojaat qilinsa, 2009 yilga kelib O'zbekistonda jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari soni **2300 taga** yetgan edi. Ular faqat aholi fikrining turli ko'rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatdi. Bunday uyushmalarning bosh vazifasi, eng avvalo, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan iborat bo'ldi. Jamoat birlashmalarini rivojlantirishdan maqsad - jamiyat a'zolarining manfaatlarini muvozanatini ta'minlash va himoya qilish. Ular siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch sifatida adolat tarozisini hayotda hukmron qilishga hissa qo'shishlari lozim. O'sha paytda Respublikada 5 ta siyosiy partiya, «Xalq birligi» harakati, **«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati**, kasaba uyushmalari va xotin-qizlar tashkilotlari, 300ta respublika va xalqaro nohukumat tashkilotlari, jamg'armalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari faoliyat yuritgan edi.

O'sha davrda bulardan tashqari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan 13 ta nohukumat xalqaro tashkilotlari O'zbekistonda faoliyat yuritdi. Umuman, mamlakatimizda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan tuzilgan bu ko'ngilli o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlar xilma-xilligi bilan farqlanar edi. Bular orasida mamlakatimizdagi jamoat tashkilotlari alohida ahamiyatga ega. «O'zbekiston kasaba uyushmalari», Xotin-qizlar qo'mitasi, «Nuroni» jamg'armasi katta ishlarni olib bordilar.

Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati katta. 1997 yil 26 dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" qonun qabul qilingan edi. 2010 yilgacha respublikadagi nashrlar sonida 490 ta gazeta, 138 ta jurnal ro'yxatga olingan edi.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari jadal rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham

fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya

qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

2009 yilga kelib respublikada 306 ta respublika ahamiyatiga molik jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatib, ulardan 64tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega edi. Ularning 48tasi jamg'arma, 78tasi jamiyat, 5tasi siyosiy partiya, 42tasi federatsiya, 16tasi kasaba uyushmalari, 2tasi harakat, 20tasi markaz, 48tasi assotsiatsiya, 20tasi uyushma, 5 tasi qo'mita, yana 22tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tganlar. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan 2237ta jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatgan.

Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, o'tgan asrning 90-yillari o'rtasida O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, asr so'nggida esa «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. 2003 yilning 15 noyabrida esa mulkdorlar va o'rta ijtimoiy qatlam siyosiy qarashlari ifodasi sifatida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Hozir Oliy Majlisda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 49ta, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining 11ta, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 11ta, «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasining esa 54ta deputatdan iborat partiya fraksiyalari mamlakatdagi qonun chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etdi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston **«Mahalla» xayriya jamg'armasi** tashkil topdi. O'tgan davr ichida **«Sog'lom avlod uchun»** xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, **«Ekosan»** xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, «Oltin meros» jamg'armasi, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Xalq birligi» harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi (hozirda O'zbekiston jurnalistika ijodiy uyushmasi), O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati, Jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy

markazi, respublika «Ustoz» jamg'armasi (hozirda «Iste'dod») kabi nodavlat tashkilotlari tuzildi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi demokratik prinsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. Shu bilan birga, «O'zbekiston tadbirkor ayollar

uyushmasi», «Ayol va salomatlik», ayollarning «Mehr» tashkiloti, «Ayollar resurs markazi», «Ayol va jamiyat» instituti kabi xotin-qizlar muammolarini yechish va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritib keldi.

O'zbekistonda BMT Rivojlanish Dasturlari asosida o'nlab xorijiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, «Britaniya Kengashi», Konrad Adenauer jamg'armasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi, Fridrix Ebert jamg'armasi vakolatxonasi, Ta'lim va tillar o'rganishda hamkorlik qilish bo'yicha Amerika Kengashi (AKSeLS), YuNESKO vakolatxonasi, Germaniyaning «Gyote instituti», Fransiyaning «Alyans Franse» kabi yana o'nlab xorijiy mamlakatlar nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari O'zbekistonning turli sohalarida keng faoliyat yuritmoqda.

Jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimi fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olish va jamiyatni davlatlashtirishda u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi. Ko'ppartiyaviylik tizimi rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, O'zbekiston ham o'z mustaqilligiga erishgach, ko'ppartiyaviylik yo'lini tanladi. Dunyoda bundan boshqa bir va ikki partiyalik tizim ham mavjud bo'lib kelgan. Ko'ppartiyaviylikning qaror topishi - jamiyatni demokratlashtirib borishning muhim belgisi hisoblanadi hamda ko'ppartiyaviylik turlicha yondashuvga, muqobillikka sog'lom raqobatga va samarali tanqidga olib boruvchi asosiy omildir.

“Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmadir” (“Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonunning 1-moddasi). 1991 yildan boshlab O'zbekiston bir partiyaviylik tizimidan ko'ppartiyaviylik tizimiga yo'l tutdi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda 5 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular quyidagilar:

1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'z XDP) – 1991 yil 1 noyabrda tashkil topgan. Qoraqolpog'iston Respublikasi, 12ta viloyat, Toshkent shahri, 200ta shahar va tuman kengashlari mavjud. Partiya a'zolari salohiyatining katta qismini 30 yosh atrofida tashkil etadi. O'zXDP o'z saflarida keng elektoratni: ziyolilar, xizmatchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar, 80ga yaqin millat va elatlarni birlashtirgan. Shiori: “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!”. XDPning oliy organi qurultoy bo'lib, u 5 yilda 1 marta chaqiriladi. Partiya shiori: 1993 yil dekabrda XDPning Milliy istiqlool mafkurasi qabul qilingan. 1999 yil oktyabrda 3-qurultoyda qabul qilingan yangi tahrirdagi dasturiga “Yoshlar — Vatan kelajagi” nomli maxsus bobni kiritdi. XDPning maqsadi: ijtimoiy adolat, mamlakat taraqqiyoti va ma'naviy yangilanishni

ta'minlash, yoki boshqacha aytganda, XDPning dasturiy maqsadlari:

Milliy mustaqillikni mustahkamlash. Tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan qudratli, demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyatni bunyod etish. Kishilarning millati, siyosiy

qarashlari, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, munosib hayot kechirish uchun teng imkoniyatlarni yaratish. Fuqarolarning erkinlik va huquqlari, tinch hayot kechirishini kafolatlash.

Matbuot organi: **“O‘zbekiston ovozi”**, **“Golos Uzbekistana”** gazetalari, **shuningdek, oylik “Muloqot” jurnaliga** ega. Jurnalistlari akkreditatsiya qilingan. Xalq demokratik partiyasining saylovlar arafasida aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash haqida dasturiy chiqishlari uning ijobiy natijalarga erishishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2. O‘zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasi — 1995 yil 18 fevralda tashkil topgan. Partiya a'zolari 60 ming nafar (2007 yil) dan ortiq. Partiya elektorati keng omma tabaqasini o'zida biriktirgan bo'lib, o'rtahol va ehtiyojmand aholi tabaqalariga tayanadi. Shiori: **“Elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak”** g'oyasini ilgari surgan. Maqsadi: O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, demokratiya tamoyillariga asoslangan, yangi ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish, adolatli jamiyatni qurish. O'zbekiston **“Adolat”** sotsial–demokratik partiyasi o'z oldiga qo'yidagi vazifalarni qo'ygan:

Demokratik jarayonlarni jadallashtirish, fuqarolar siyosiy ongi va siyosiy madaniyatining rivoji uchun kurashish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan kishilarni tarbiyalash, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholining muhofazasini ta'minlash, milliy qadriyatlarni tiklash, yosh avlodni madaniy merosimizni o'rganish asosida tarbiyalash, millatchilik g'oyasiga qarshi kurashish, tinchlik, barqarorlikni, milliy hamjihatlikni targ'ib qilish, rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, milliy manfaatlarimizga mos keladigan tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlash, jahon sotsial–demokratik harakati, sofdil va ezgu niyatli boshqa ijtimoiy harakatlar, partiyalar bilan aloqa bog'lashdan iborat. Partiyaning oliy organ – Qurultoy. Qurultoylar oralig'ida partiyalarga rahbarlik fraksiyasini Siyosiy Kengash olib boradi.

3. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi — 1995 yil 3 iyunda tashkil topgan. Partiya o'z elektoratida ko'proq ziyolilarga suyanadi. Ijtimoiy qatlam sifatida o'rta tabaqani biriktirgan. Partiyaning bosh maqsadi – milliy manfaatlar zaminida yangi o'zbek davlatining asoslarini yaratish, huquqiy davlatni qurish. Partiyaning maqsadi: davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklash. Yoki boshqacha aytganda, partiyaning oliy maqsadi: millatning ma'naviy birligi, vatan–yagona oila, kuchli demokratik davlat, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ilmiy–texnikaviy taraqqiyot va umumjahon integratsiyasi. MTPning matbuot organi: **“Milliy tiklanish”** gazetasi.

4. O‘zbekiston Liberal–demokratik partiyasi (O‘zLDP) – 2003 yil 15 noyabrda

tashkil topgan. Elektorati: tadbirkorlar: mulkdorlar qatlami, kichik biznes vakillari, fermerlar, jamoat tashkilotlari vakillari, ishlab chiqarish mutaxassislari, ijodkorlar, olimlar va barcha fuqarolarning manfaatlarini va siyosiy irodalarini ifodalovchi siyosiy tashkilot hisoblanadi. Bosh maqsadi: ishbilarmon tadbirkorlarga keng faoliyat yuritish uchun imkoniyat yaratish. Shiori:

“Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi azmi kat'iy bir kishi ming–minglab tadbirsiz kishidan yaxshidir”. O‘z Siyosiy Kengashiga ega. Partiyaning asosiy maqsadlari:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash. Boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlik, fuqarolik jamiyatiga keng yo‘l ochib berish, demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirish.

Siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘maklashish, O‘zbekistonning xalqaro obro‘cini oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish, barcha millatlar va ellatlar qatlamlarining kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish. Liberal–demokratik g‘oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o‘ylangan tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib borish, o‘z saflarini kengaytirish.

5. O‘zbekiston Ekologik partiyasi. 2008 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston **Ekologik harakati** o‘tgan tarixiy davrda chinakam siyosiy kuchga aylandi. Harakat vakillari parlament quyi palatasiga kvota asosida kiritilishi uning faol va tashabbuskor bo‘lib ishlashini muayyan darajada susaytirgan edi. Shu bois barcha siyosiy kuchlar uchun teng sharoit yaratish va parlament quyi palatasidan Ekologik harakat vakillari uchun maxsus o‘rin ajratishdan voz kechildi. Bu o‘zgarish siyosiy maydonda sog‘lom raqobatni kuchaytirdi va Ekologik harakatning alohida siyosiy kuch sifatida mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Dunyoda ekologiya yo‘nalishidagi qariyb 100ta siyosiy partiya faoliyat yuritadi. Odatda, “yashillar” nomi bilan yuritiluvchi bu partiyalar, parlament orqali ekologiya sohasidagi davlat siyosati g‘oyalarini ilgari suradi. Mazkur partiyalarning yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri global ekologik muammolarning dolzarblashuvi va sonining oshishidir. O‘zbekistonda ekologik partiyani tashkil etish hayotiy zarurat edi. Shu sababli **2019 yil 8 yanvarda O‘zbekiston Ekologik partiyasi** tuzildi. Shu tariqa Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2019 yil 24 yanvarda Adliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Ekologik partiyasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Yangi partiyaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof-muhitni yaratishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir

fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunining 6-moddasiga asosan ekologik partiya tashkil etish bo'yicha mamlakat fuqarolaridan iborat tashabbuskorlar guruhi shakllandi.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi

maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi. Bunda jamoatchilik nazoratining o'rni katta.

Jamoatchilik nazorati tushunchasi mohiyati zamirida jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda tenglik va javobgarlikka xizmat qiluvchi omil sifatida insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligi, balki har bir davlat organlari faoliyatida ham ustuvor ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining asosiy ko'rsatgichi sifatida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo'lmagan jamiyatda to'laqonli fuqarolik jamiyatini shakllanishini tasavvur qilish qiyin.

Jamoatchilik nazorati mexanizmlari muhim vosita hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat boshqaruvida samarali va bevosita ishtirok etishining muhim elementidir. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari, ya'ni hokimiyat va jamiyatning o'zaro nazorati mexanizmi fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorligini yaratish va yanada to'laqonli mavjud bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jamiyatning davlat ustidan nazorat qilish mexanizmining huquqiy tomoni jamoatchilik nazorati sub'ektlarining huquqiy maqomini belgilovchi va uni amalga oshirish shakllari, usullari va tartiblarini belgilab beruvchi turli darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimidan iborat. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari konsepsiyasining o'zi ham shakllar, vositalar, usullar va tartiblar tizimi, shuningdek, nazorat sub'ektlari orqali o'rganishlar, davlat boshqaruvi sifatini, inson huquqlariga rioya etilishini baholashni amalga oshiradigan organlar va muassasalar tizimi sifatida belgilanishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati mexanizmlari juda keng doiradagi harakatlarni, shu jumladan, murojaatlar, monitoring, axborot so'rovlari, so'rovlar, jamoatchilik muhokamalari, jamoatchilik ekspertizalari, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari xabarlarini tahlil qilish kabi jamoatchilik ta'sirining mustaqil tartiblarini o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi. Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati samaradorligini bir vaqtning o'zida bunday nazoratning bir nechta mexanizmlarini qo'llash orqali ta'minlash mumkin.

Muayyan hokimiyat tarmog'i jamoatchilik nazoratining o'ziga xos va mustaqil mexanizmlarini talab qiladi. Tegishli mexanizmning o'ziga xosligi davlat

organlari faoliyatiga, ularga yuklatilgan vazifalarga, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va himoya qilish uchun javobgarlik darajasiga bog'liq. Davlat organlari tomonidan jamiyat, fuqarolik institutlari tomonidan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishning tizimli samarali huquqiy mexanizmlari amaldagi qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligi ijrochilarning professionalligi va oldindan ishlab chiqilgan strategiya, axborot resurslaridan foydalanish, axborot ochiqligi va yetkazilishi, jamoatchilik nazorati jarayonini qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlanadi.

Jamoatchilik fikri va amaliyoti - bu keng jamoatchilikning, ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining voqyea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlari hamda xatti-harakati sifatida shakllangan. U ijtimoiy hayot ta'sirida stixiyali shakllanib borgan va omma ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ya'ni, u jamoa ongining o'ziga xos umumlashgan ifodasi sifatida, alohida fikrlarning o'zaro almashinuvi, boyishi va uyg'unlashib borishi natijasida yuzaga keladi.

Demokratik jarayonlarda jamoatchilik nazorati muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, g'arbda turmush tarzining individualizm falsafasiga tayanuvchi, inqilobiy o'zgarishlarga moyil g'arb namunasi O'zbekistonga xos emas. Bizning sharq jamiyatimizda sharqona mentalitetni aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 22 dekabrda **Oliy Majlisga Murojaatnomasida** ta'kidlanganidek, "... bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga halaqit bermoqda. Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur. Shu munosabat bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita

bog'laydigan ko'prik vazifasini bajarishi lozim".

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi **"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2018 yil 12** aprelda qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda: sog'liqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari; katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini amalga oshirishda **ekologik nazorat** muhim o'rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmning ushbu funksiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Biz fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati ortib boraveradi. So'nggi yillarda "Jamoat fondlari to'g'risida"gi qonun va "Homiylilik to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil rolini o'tamoqda.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan **"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"**gi qonunni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi

har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan – to'g'ri ularning ishiga

aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yillar davomida fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil bo'lgan qonunlar va qarorlar qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyati institutlarinig yanada rivojlanishiga erishish amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoralik va samaradorligini ta'minlash, ularning rolini kuchaytirishda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning **2020 yil 29 dekabr**dagi **Oliy Majlisga Murojaatnomasida** "...erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarur. Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb etiladi. Bunday hamkorlikni, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik,

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga, Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilaman, degan edi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etishi muhim hisoblanadi.

Bugungi rivojlanish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Jamoat fondlari to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik

to'g'risida", "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5430-sonli tarixiy Farmoni va keyingi ikki yilda qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Adliya vazirligi tomonidan mazkur Farmon bilan yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan birgina 2018 yilda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish va ulardagi huquqiy kolliziyalarni bartaraf qilish bo'yicha 20dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalari tayyorlandi va ulardan 10tasi qabul qilindi.

Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** belgilab berilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida Adliya vazirligining tashabbusi bilan kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yilning 4 may kuni "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5430-sonli Farmonining qabul qilinishi bu sohada yangi davrni boshlab berdi. Mazkur Farmon bilan ko'p yillardan beri NNTlarni qiynab kelayotgan masalalar hal qilindi.

Farmon bilan bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tashkil etilib, ushbu kengashga fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni

muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyasi haqida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini muntazam ravishda xabardor qilish va Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha qulay sharoitlar yaratish yuzasidan Prezidentga takliflar kiritish vazifasi yuklatildi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirlarini kelishish tartibi rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida xabardor qilish tartibi bilan almashtirildi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida, «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat **2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida** 1-ustuvor yo‘nalish sifatida “Inson qadrini yuksaltirish

va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” maqsad qilindi.

Strategiyada Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda «Taraqqiyot strategiyasi» markazi ta'lsichilarining «Taraqqiyot strategiyasi» markazining faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq tadqiqot va «aql» markazi sifatida qayta tashkil etish hamda quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatish to‘g‘risidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlanish belgilandi. Shuningdek, strategiyaning 20- maqsadi **“Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish”** deb nomlanganligining o‘ziyiq unda fuqarolik jamiyati institutlariga alohida ahamiyat qaratilayotganligini anglatadi. Unda belgilanishicha, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish lozim.

Tadbirkorlar va aholi, ayniqsa, uning kam ta'minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi «Legal Tech» platformasini ishga tushirish ko‘zda tutildi.

5. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. Ma'lumki, jamoa bo‘lib yashash insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Chunki bunday uyushqoqlik kishilarni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy tomondan o‘zaro birgalikda hayot kechirishlarini ta'minlagan. Kishilik jamiyati taraqqiyotida dastlab qabila, urug‘ uyushmasi so‘ngra, yanada kattaroq uyushma, ya'ni qo‘ni-qo‘shnichilik jamoasi shakllangan. Jamoa mohiyatiga umumiy nuqtai nazardan yondashsak, u qon-qarindoshlik aloqalari asosida vujudga kelgan kishilarning dastlabki uyushmasidir. Insoniyat taraqqiyotida odamlar hayotida juda katta sifat o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Bu davrda kishilarning dastlabki jamoa bo‘lib yashash kurtaklari paydo bo‘la boshlagan.

Jamiyat o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko‘tarila borishi bilan dastlabki shahar manzilgohlari va davlatlarning paydo bo‘lishi jarayonida qon-qarindoshlikka

asoslangan ibtidoiy jamoa yo‘qolib, dastlab shaharlarda, so‘ngra qishloqlarda qo‘ni-qo‘shni jamoalar shakllana boshlagan. Umuman, bunday uyushma kishilarning hayotiy zarurati tufayli o‘zaro uyushuvi bo‘lib, unga nisbatan uzoq tarixiy bosqichlardan o‘tib kelgan, ma‘lum bir joyga xos bo‘lgan kishilar guruhi sifatida qarash mumkin. Chunki uning a‘zolari ma‘lum hududda yashaganlar.

Mahalla katta-kichik oilalardan, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilardan tashkil topgan. Ularning o‘zaro birlashuvi turmushda barcha moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarni qondirgan. Qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida u yoki bu tarzda o‘zgarib, rivojlanib kelgan va tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim rol o‘ynagan. Ma‘lumki, mahalla oila kabi

jamiyatning kichik bir bo‘g‘ini hisoblanadi. Azaldan O‘zbekistonda aholi turmush tarzida qo‘ni-qo‘shnilarning o‘rni katta bo‘lgan. O‘zaro munosabatlarning bunday shakli oila va mahallaning mustahkam aloqasini, xo‘jalik, madaniy birligini qaror toptirgan.

Mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan jadal o‘zgarishlar natijasida, barcha shahar, qishloq va ovullarda mahallalar faoliyati yangidan tashkil qilinib, ularning huquqiy asosi va vakolati kun sayin orta boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu tashkilotning nufuzi va obro‘cini yanada kengaytirdi.

Bugungi kunga qadar tizim faoliyatiga doir ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ular quyidagilar: Respublika **“Mahalla” xayriya** jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni”, (1992 y. 13 sentyabr); O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. (1992), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni// Qonun hujjatlari to‘plami. (1995), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni// Qonun hujjatlari to‘plami. (1998), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni// Qonun hujjatlari to‘plami. (1999); “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni// Qonun hujjatlari to‘plami. (2014); Fuqarolar yig‘inlarining diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchisi faoliyati to‘g‘risidagi Namunaviy Nizom (2005); Mahalla fuqarolar yig‘ini tizimining namunaviy tuzilmasi va ish yuritish uslublari (2007); Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi (2008); Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami (2015); O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni (2017 yil 4 fevral) va h.k.

Dastlab, **1993 yil 2 sentyabrda "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi** qonunning qabul qilinishi, 2003 yilning O‘zbekistonda “Obod mahalla”,

2013 yil "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishi mahallalarning mas'uliyatini oshishiga, uning vakolat doiralarining kengayishiga xizmat qildi. "Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda.

Darhaqiqat, mahalla jamiyatimiz uchun o'ziga xos tarbiya o'chog'i, milliy an'analar, urf-odat va marosimlar shakllanadigan, fuqarolarni g'oyaviy jihatdan birlashtiradigan o'ziga xos maskandir. Bugungi global o'zgarishlar, mafkuraviy tahdidlar sharoitida mahalla xalqimizni turli mafkuraviy xurujlardan asrash,

jamiyatda mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun yoshlarni, avvalo, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Fuqarolarimiz, xususan, yoshlar mustaqil dunyoqarashga ega bo'lib, ularda milliy g'oyani chuqur anglash hissi shakllansa, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bunda biz, avvalambor, mahallaga va yana mahallaga murojaat etamiz.

Mustaqillik yillarida ma'naviy yetuk va barkamol avlodni shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu jarayonga mahalla ham qo'shilganligi e'tiborga molikdir. O'z navbatida shuni qayd etish lozimki, fuqarolar ongida yuksak ma'naviyatli sifatlarni shakllantirish, tarbiyalash umumxalq ishidir. Uni faol targ'ib qilish oila, bog'cha, maktab, oliy ta'lim tizimi, mahallaning muqaddas burchidir, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada Prezidentimizning 1994 yil 23 aprelda «**Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi**n»ni tashkil qilish to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi muhim voqeya bo'ldi.

Ma'lumki, o'zbek oilasida azaldan yaxshilik va ezgulik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Ya'ni insonparvarlik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik kabi fazilatlar o'zbek xalqi milliy mentalitetining ajralmas qismi bo'lib kelgan. O'zbek xalqi milliy mentalitetida oilada bolalar tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratiladi. Bola oila muhitidan chiqib jamoaga qo'shiladi, ya'ni mahallada unib-o'sadi. Shu bois bugungi kunda mahallaning o'z hududi doirasida oilalar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish ishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, yosh avlod ongida insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllanishiga xizmat qilmoqda.

1992 yil 12 sentyabr, «Respublika «**Mahalla**» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida»gi 1992 yil 8 oktyabr Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 1992 yil 17 oktyabr qaroriga asosan, O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Shuningdek, mahallalar rahbar xodimlari va faollarining malakasini oshirish maqsadida, Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi huzurida «Mahalla ziyosi» o'quv-uslubiy markazi tashkil qilingan. O'zbekiston «Mahalla» xayriya

jamg'armasining nashri-respublika «**Mahalla**» gazetasi ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, mamlakatimizda mahalla boshqaruv tizimi 2,5 yil muddatga saylanar edi. Olib borilgan ishlar yuzasidan ular o'z hisobotlarini berib borishi belgilangan edi. Bu borada 1993 yil 2 sentyabrdagi qonunning qabul qilinishi mahallalarning nufuzini yanada ko'tardi va mas'uliyatini oshirdi. Zero, barchamiz mahallada o'sganmiz. Uning nufuzini ko'tarish, bilinki, nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, balki siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim. Mahallaning har qanday

masalani yechishga qurbi yetadi. Nega deganda, eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin.

Hyech bir korxona, hyech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi. U yerda hayot tajribasi katta, zaminga yaqin, ko'pni ko'rgan, barcha ishni joy-joyiga qo'ya oladigan fidoyi odamlar yashaydi va ishlaydi. Shunday ekan, barcha masalada mahallalarga suyangan holda ishlashimiz, kelajagimizni ular yordamida qurishimiz lozim.

1992 yil, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular orasida 1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori (1993 yil 1 dekabr) "Mahalla" xayriya jamg'armasining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida tutgan o'rni tobora oshib borayotganligini e'tiborga olib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish vazifasini ilgari surdi. Shunisi diqqatga sazovorki, unda respublika vazirliklari, idoralar, konsernlar, korxonalar, xo'jaliklar va tashkilotlarga "Mahalla" xayriya jamg'armasi hamda uning quyi bo'g'inlariga muntazam ravishda moddiy, moliyaviy va amaliy yordam ko'rsatish vazifasi topshirildi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tizimli ish faoliyatini tashkil etish maqsadida, ushbu Qonunda fuqarolar yig'inlarida rais, **"Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha rais maslahatchisi"**, **"Mas'ul kotib"** va **"Mahalla posboni"** jamoat tuzilmasi faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilgan edi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishida faoliyatning asosiy turlari bo'yicha komissiyalarga rahbarlik qiluvchi obro'li va hurmatga sazovor fuqarolar jamoatchilik asosida ishtirok etishi belgilandi.

Ayniqsa, fuqarolar yig'inlarining "Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchi" lavozimining tashkil etilishi, mahallada ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va unga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishda,

yoshlar hamda xotin-qizlar orasida mafkuraviy profilaktikani olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvallash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3434-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining mazkur Farmon ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risidagi 2004 yil 29 iyundagi 299- son qarorida "xotin-qizlarga diniy bilimlar va milliy diniy an'analar asosini egallashda yordam ko'rsatish, xotin-qizlarni diniy bag'rikenglik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligiga yo'l qo'ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy

siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g'ayriinsoniy, zararli g'oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish vazifalari belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi (32, 105 - moddalar). Ayni vaqtda O'zbekiston Konstitutsiyasi asosida o'zini o'zi boshqarishning huquqiy asoslarini, o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va ularning vakolatlarini belgilovchi huquqiy- me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilindi.

Mahalla instituti faoliyatini takomillashuvi davlat mustaqilligining ilk yillaridan boshlandi. Yuqorida qayd etilganidek, 1991 yil 12 sentyabrdagi Farmonga muvofiq, respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni elon qilindi. Jamg'armaning vazifalari jumlasiga tarixan tarkib topgan an'ana va odatlarni asrab-avaylashga va boyitishga har tomonlama yordam berish; har xil an'anaviy marosimlar o'tkazish; mehmuruvvatni qaror toptirish hamda o'zaro yordamni tashkil etish; juda muhtoj oilalar va alohida shaxslarga tekin moddiy yordam ko'rsatish; mahallalar hududini obodonlashtirish; mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga yordam berish kiradi.

Milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining 105-moddasida** "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi" deb ko'rsatib o'tildi. Shundan kelib chiqib, 1993 yil 2 sentyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ma'lum muddat amalda bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mazkur qonunga 1997 yil 25 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 1999 yil 14 aprelda Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Shu

bilan birga, yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o‘z aksini topdi.

O‘tgan yillar davomida mahalla ijtimoiy hayotida ko‘plab qadriyatlar, urf-odat va an‘analarini qayta tiklanishi bilan birga mahalla institutining faoliyati ham takomillashib, zamon talablariga moslashib bordi. Aniqroq aytganda, bugungi islohotlarda mahallaga bo‘lgan munosabat, mamlakat ijtimoiy siyosiy jarayonlaridagi o‘zgarishlar mahallada transformatsiya jarayonlari doimiy va davomli bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

2003 yil O‘zbekistonda “Obod mahalla” yili, 2004 yil “Mehr va muruvvat” yili, 2007 yil “Ijtimoiy himoya” yili, 2013 yil “Obod turmush” yili deb e‘lon qilinishi va davlat dasturlarini qabul qilinishi jamiyatda mahallaning nufuzini oshishiga xizmat qildi. Mahallaning fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi

sifatidagi roli va ahamiyatini oshirish, milliy qadriyat va an‘analarni, o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashdagi nufuzini ko‘tarish, aholini moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasida 2003 yil «**Obod mahalla yili**» deb e‘lon qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorida, mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi roli va maqomini yanada mustahkamlashga; mahalla faoliyatining amaldagi me‘yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishga, uning vakolatlarini kengaytirishga va fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi mas‘uliyatini oshirishga; mahalla faoliyatining moddiy bazasini mustahkamlashga, mahalla hududida tadbirkorlikni, xizmatlar ko‘rsatish va savdo sohaslarini rivojlantirishga, shular hisobiga yangi ish o‘rinlari barpo etishga; mahallaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga, uning hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga, bolalar va sport maydonchalarini jihozlashga, kommunal tarmoqlarini rivojlantirishga; mahalla tomonidan kam ta‘minlangan oilalarga aniq yo‘nalishli moddiy yordamni va yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga; keksa avlodga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirishga e‘tibor qaratilgan mazkur qaror asosida respublika qishloq va mahallarida aholi farovonligini ta‘minlashga doir ishlar bajarildi.

Jumladan, 2003 yilning o‘zida 310ta mahalla guzari bunyod qilindi, shahar va qishloqlarda 25 milliondan ziyod daraxt ko‘chatlari o‘tkazildi, aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta‘minlashni yaxshilash maqsadida, qariyb ming kilometrlik suv va 1322 kilometrlik gaz tarmog‘i ishga tushirilgan. Keyingi yillarda ham bu kabi amaliy ishlar davom etgan.

2010 yil 12 noyabrda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti - mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini

ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu vazifalarni hal qilishda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir", deb belgilangan edi. Shundan kelib chiqib, **2013 yil 22 aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"**gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratdir", deb belgilangan.

2015 yil 1 yanvarda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Bu, o'z navbatida, davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorligini yangi bosqichga ko'tarishiga xizmat qilmoqda. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatda manfaatlar muvazanatini ta'minlash kabi eng muhim vazifalarni hal etishda fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar fuqarolar yig'inlari faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish, aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirilganligi bilan ahamiyatli bo'ldi. Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Mahallaning boshqaruvi milliy va davlatchiligimiz tajribasidan kelib chiqib, rais, ya'ni oqsoqol tomonidan amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rais (oqsaqol)lari dastlab 2,5 yilga saylangan bo'lsa, 2018 yil 27 sentyabrda Senat tomonidan ma'qullangan "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi qonunning 8- moddasida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) fuqarolar yig'ini tomonidan, fuqarolar yig'inini chaqirish imkoni bo'lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig'ilishi tomonidan uch yilga saylanadi, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020 yil 18 fevraldagi PF-5938- son Farmoni** va maxsus qaroriga asosan, **2020 yil fevraldan** boshlab mahalla raislarining vakolat **muddati 5 yil** qilib belgilandi. Bu muddat esa, o'z navbatida, raislarga o'zi saylangan hudud aholisi farovonligini oshirishda islohotchilik va tashabbuskorligini to'la namoyon etish imkoniyatini beradi.

Joylarda aholi farovonligini ta'minlashda bevosita fuqarolar yig'inlari raislari tashabbuskorligi, tajribasi bilan bir qatorda, mahallalarda tashkil etilgan komissiyalar

faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda mahalla instituti faoliyatini takomillashtirish va ish samaradorligini oshirish maqsadida, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (2013) qonunga ko'ra, fuqarolar yig'inlaridagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagi komissiyalar faoliyat olib borishi belgilangan.

Qonunda ushbu komissiyalar faoliyat olib borishlari belgilangan bo'lib, jamiyatda aholi farovonligini oshirish borasida katta ishonch bildirilgan mazkur komissiyalar amalda o'zini oqlamadi. Sababi ushbu komissiyalar jamoatchilik asosida faoliyat olib borgan va ularda ma'lum ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun moliyaviy imkoniyatlar (resurslar) va ta'sir o'tkazish bo'yicha vakolatlar mavjud bo'lmagan. Komissiyalar faoliyatini jonlantirish, xalqchilligini oshirish, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash maqsadida, ayrim komissiyalar va lavozimlar faoliyati tugatilib, uning o'rniga yangi lavozimlar joriy etildi.

Joriy etilgan yangi tartibga ko'ra, fuqarolar yig'inlarida yarashtirish komissiyasi o'rnida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiyasi o'rnida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiyasi faoliyati yo'lga quyildi. Bundan tashqari, joylardagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan o'z vakolati doirasida yangi komissiyalar tuzilishi ham mumkin.

2017 yilning "**Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili**" deb e'lon qilinishi va shu asosda ishlab chiqilgan davlat dasturlari, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud ijtimoiy institutlar faoliyatini jadallashtirish bilan birga yangi institutsional tashkilotlarni tuzilishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-sonli Farmoniga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Xalq qabulxonalari**" tashkil etildi va yangi ijtimoiy institutlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **Virtual qabulxonasi** faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, **2018 yil 1 fevraldan e'tiboran** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. Bu esa aholiga masofadan turib o'z murojaatlarini yo'llash, turli sohalar bo'yicha yillar davomida mahallalarda yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat rahbarining 2017 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini oqlayotganligi ta'kidlab o'tilgan. Qisqa muddatda ana shu qabulxonalarga bir yarim milliondan ziyod fuqaro murojaat qilgani va qancha-qancha odamning yillar davomida hal etilmagan muammolari ijobiy

yechilgani, O‘zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalda joriy etilayotganini ko‘rsatmoqda. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda mahalla tizimi faoliyatini takomillashtirish borasida davlat siyosati darajasida olib borilayotgan amaliy ishlar xalqning turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalla instituti faoliyatini rivojlanishi 2017 yildan yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-son **“Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga** ko‘ra, sohaga oid ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etildi. Jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari - **Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi** lavozimi joriy etildi.

Mazkur lavozimning joriy etilishi joylarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mavjud muammolarni bartaraf etish, yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, bandligini ta‘minlash, jinoyatchilikning oldini olish kabi masalalarni hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Respublika Kengashi raisi - vazirga, Respublika Kengashi raisining o‘rinbosari - vazir o‘rinbosariga tenglashtirildi. Farmonning yettinchi bandiga muvofiq, mahallalarda tegishli vazifalarni amalga oshirishda munosib hissa qo‘shgan tashabbuskor fuqarolarni taqdirlash maqsadida, **“Mahalla iftixori”** ko‘krak nishoni ta‘sis etildi. Bundan tashqari 2017-2021 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shahar fuqarolar yig‘inlari idoralari binolarini namunaviy loyihalar va ularga qo‘yilgan talablar asosida qurish, ularni zarur mebel jamlanmasi, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari va internet tarmoqlari bilan jihozlash kabi masalalar e‘tiborga olingan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, mahallalarda ish samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida, 2017-2021 yillar mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600ga yaqin xizmat binolari joriy, 367tasi kapital ta‘mirlandi va 350dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Shunga qaramay fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xizmat binolari bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan. O‘zaro yaqin mahalla binolari, ta‘lim muassasalari, tibbiyot muassasalari hamda xususiy tadbirkor, ayrim korxona va tashkilotlar binolarida vaqtincha faoliyat olib borayotgan fuqarolar yig‘inlari mavjud. Bu esa ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlari ish samaradorligiga ham ta‘sir o‘tkazadi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev “Odamlar tinch yashashi uchun butun mamlakatimizda jinoyatdan xoli muhit yaratishimiz shartligi, buning uchun mahallalarga birlashtirilgan profilaktika inspektorlari uchun yetarlicha sharoit yaratib berish kerakligi bo‘yicha ko‘rsatmasi asosida, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida, profilaktika inspektorlari uchun 6 yarim mingdan ziyod xizmat uylari, 1 ming 100ta shaxsiy uy-joy, 7 mingta shaxsiy avtomobil

berildi. Shu bilan birga, Milliy gvardiya xodimlari uchun ham 1 ming 800ta uy-joy quriladi. 2018 yilda 3 ming 205ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmagani ham shu ishlarimiz natijasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi” fikr bildirgan edi. Olib borilgan islohotlar samarasida 2020 yilda 7228ta mahallada jinoyat sodir etilmagan, 428ta mahallada jinoyatchilik kamaygani yangidan joriy etilgan **“xavfsiz mahalla”** tamoyilini amaliy natijasini ko‘rsatdi.

2019 yil 2 aprel kuni «Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutining mavqeyini mustahkamlashga oid qator o‘zgarishlar belgilandi. Xususan, mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini saqlashda keksa avlod vakillari va huquqni muhofaza qilish organlari nafaqadagi xodimlarining boy hayotiy tajribasidan unumli foydalanish maqsadida,

«Keksalar maslahati» guruhlarini tashkil etildi va faoliyat olib bordi. Sohaga oid yana bir yangilik “Mahalla posboni” lavozimi tugatilib, uning o‘rniga **“Profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchisi”** lavozimi joriy etilganligidir. Bunda asosiy masala ushbu lavozimga tayinladigan shaxslar malakali huquqshunos, masalaga qonun nuqtai nazaridan yondashadigan kadrlarni ishga olishga qaratilgan edi. Bundan ko‘zlagan maqsad jinoyat yoki huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha har qaysi hudud bo‘yicha o‘z tajribasini yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 18 fevralda Prezident Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi **“Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi”** tashkil etildi.

Mazkur Farmon va Qaror asosida yangi vazirlik tashkil etilishi munosabati bilan tizimda qo‘yidagi o‘zgarishlar bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi va vazirlik tuzilmasiga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati tugatildi va Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tarkibiga kiritildi. Fuqarolar yig‘ini raisiga bir qator qo‘shimcha huquqlar berildi. Jumladan, fuqarolar yig‘ini raisi tegishli hududdagi profilaktika inspektori faoliyatiga baho berish hamda uni rag‘batlantirish yoki unga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha

Qoraqalpog‘iston Ichki ishlar vazirligi, hududiy ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda boshqarmalariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma kiritish huquqiga ega bo‘ldi; Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yuklatilgan 46 turdagi hamda profilaktika inspektorlariga yuklatilgan 13 turdagi vazifa va funksiyalar qisqartirildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuzilmasida fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosarlari sanalgan ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha maslahatchi, tadbirkorlik, tomorqa yer egalari faoliyatiga ko'maklashish va obodonlashtirish ishlari bo'yicha maslahatchi, yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchi lavozimlari tugatildi.

Mahalla instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan maqsad va vazifalar ham aniq belgilab berildi. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblangan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;

xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo'llab-qo'vvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish kabi bir qator yangiliklar joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2021 yil 3 dekabr**dagi «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, mahallalarda “**Hokim yordamchisi**” lavozimi joriy etildi. Ular bevosita mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududning “o'sish nuqtalari”dan kelib chiqqan holda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish choralari ko'rishda bosh-qosh bo'ladi. Bundan tashqari, ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish, ishlash istagidagi ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlash hamda aholining o'zini o'zi band qilishiga ko'maklashish kabi tadbirlarni tashkil etish ham uning zimmasiga yuklatiladi. Hokim yordamchisining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

□ mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

□ mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

□ doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan

bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

□ mahalladagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, "temir daftar", "ayollar daftari" va "yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

□ mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish;

□ mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga biriktirish;

□ aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

□ mahalladagi ish bilan band bo'lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadida, ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun subsidiyalar olishda ko'maklashish;

□ mahalladagi bo'sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;

□ tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish belgilandi.

Unga ko'ra, barcha vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari hokim yordamchilariga ularning vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko'mak berish uchun shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanishi qayd etildi. Mahalla instituti faoliyatiga bildirilgan ishonch so'nggi yillarda yanada ortib, mahallaning mazmun-mohiyati, vazifalari yangicha mazmun bilan boyitilmoqda. Bugungi kun O'zbekiston ichki siyosatida zamonaviy mahalla iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarni ro'yobga chiqarish, aholiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, joylardagi mavjud ijtimoiy muammolarni yechishda davlatning eng yaqin ko'makchisiga aylandi.

Mazkur dasturni takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, 2021 yil 2 aprelda **«Obod qishloq» va «Obod mahalla»** dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori qabul qilindi va mazmunan boyitilib, qishloq va mahallalar qiyofasini yangilash, aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha istiqbolli rejalar belgilab olindi. Bu dasturning ahamiyatli jihati shundaki, aholi va tadbirkorlarda ham o'zlari istiqomat qilayotgan (joylashgan) qishloq (mahalla) hududini birgalikda obodonlashtirish yuzasidan tashabbuslarning mavjudligi, «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» tushunchalari kiritilib, dasturni amalga oshirishda ichki turizm rivojiga alohida e'tibor qaratilgan. Agar 2018 yilda qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirilib, natijada, 416ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'lgan bo'lsa, yangi

dasturga ko'ra, 2021 yilda barcha tuman va shahardagi jami 7 794ta qishloq va mahallada umumiy qiymati 20,8 trillion so'mlik qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari rejalashtirilgan. Mana shu statistikaning o'zi ham qisqa vaqt davomida hududlar infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan davlat siyosatining amaldagi ifodasidir.

Yaqin besh yilga mo'ljallangan ushbu muhim dastur mahallalar hayotida yangi davrni boshlab berdi. Bu borada 2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”**gi Farmonining qabul qilinishi olamshumul voqyea bo'ldi. Zero, strategiyaning birinchi ustuvor yo'nalishi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”, deb nomlangan. 1-maqсад esa Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, deb nomlangan.

Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonga muvofiq, mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yilishi belgilangan. Shuningdek, unda barcha darajadagi rahbarlarning mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezon sifatida belgilanishi qayd etilgan. Bu borada mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzi oshirilishiga alohida urg'u berilgan.

Farmonda **mahallaning “faol modeli”**ni joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish, mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish belgilangan.

Farmonga muvofiq, mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari qayta ko‘rib chiqilib, moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilgan. Mahallalarning “o‘shish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirilishi belgilandi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining **12- maqsadi “Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish”**, deb nomlanadi. Ya’ni, fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlarida keng jamoatchilikning rolini oshirish hamda ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga bag‘ishlanganligi e’tiborga molik bo‘lib, unda quyidagilar belgilangan:

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish;

- ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati sub'ektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o‘rganishda ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

- aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini va saylov madaniyatini oshirish, saylovlarga oid xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish ishlarini davom ettirishga alohida urg‘u berilgan.

Bevosita mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari qayta ko‘rib chiqilib, moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi, mahallalarning «o‘shish nuqtalari» va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilishi qayd etilgan. Farmonda mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko‘maklashish va o‘qitish markazlari, tadbirkorlik ob'ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, mahallani joylardagi vakillik organlari bilan doimiy aloqalarining huquqiy asoslarini yaratish, shu jumladan, mahalla raisi tomonidan mahalliy Kengash majlisida ko‘rilishi majburiy bo‘lgan masalalarni kiritishning samarali mexanizmlari yo‘lga qo‘yilganligi mahallalar zimmasiga yanada kengroq mas’uliyat yukladi.

Fuqarolar yig‘inlari raislarining vakolat muddati uzaytirilishi va mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, har yili 22 mart **“Mahalla tizimi xodimlari”** kuni deb e’lon qilindi. Agar tarixiy raqamlarga murojaat qilinsa, 1994 yilda 12 mingdan ortiq o‘zini o‘zi boshqarish organlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2001 yilda 7847tani tashkil etgan. 2021 yilning boshlariga kelib 9216ta fuqarolar yig‘inlari faoliyat

olib borgan edi. **2022 yil 1 mart holatiga ularning soni 9 309tani** tashkil etdi. Ayniqsa, yangi vazirlikning tashkil etilishi sohaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganini, shu bilan birga, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, mahalla instituti vakolatlarini kengaytirish, xalqchilligini oshirish, ijtimoiy himoya va aholi bandligini ta'minlash, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini respublika bo'yicha amalda qo'llash, respublika mahallalari moddiy-texnik bazasini yaxshilashga imkon yaratdi.

Mahalla instituti ijtimoiy faoliyati ko'lamiga ko'ra noyob tuzilmadir. Bu jahon tajribasida uchramaydigan, amalda o'zini oqlaydigan va faqat bugungi kunda O'zbekistonning ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan hamda jahon hamjamiyati katta

qiziqish bilan qarayotgan institutdir. Uni boshqarish yillar davomida takomillashib borishi, uzoq yillar davomida mahalla bilan bog'liq taransformatsion jarayonlarni davom etishi natijasida, kichik mahalliy boshqaruv tizimidan alohida vazirlik boshqaruvining shakllanishiga turtki berdi.

2022 yil 1 mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Shu asosda Prezident Farmoniga ko'ra, **2022 yil 1 martda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi"** tashkil etildi. Prezidentning «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, **«Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi»** tashkil etildi. Mahalla faoliyatidagi eng muhim islohotlardan biri, shubhasiz, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinganligi bo'ldi.

3. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g'oyasining mohiyati. Xalqimizga xos muhim fazilatlaridan eng muhimi - qadriyat sifatida ardoqlanib kelinayotgani – Erkin, Ozod va mustaqil hayot kechirishga intilishdir. Unga erishish mashaqqatli kurash, mehnat qilishni talab etadi. Bu ezgu yo'lda tarixiy o'tmishda ajdodlarimiz boshidan ne-ne og'ir kunlarni kechirmadi. Tinchlik va farovonlik yo'lida jon olib jon berdi. Kurashdi. Qon to'kdi. Sabr – matonat ko'rsatdi. Kezi kelganda sukut saqladi. Bosiqlik, vazminlik bilan yetti ulchab bir kesib, munosabat belgiladi. Maqsad yagona – Insoniy hayot kechirish, erkin mehnat qilish, bugun va kelajakning tinchligini ta'minlab, farovon hayotga erishib, uni kelgusi avlodga meros qilib qoldirish. Bu kabi ezgu maqsad yo'lida Xalqimizning donishmand – fuzolalari, mutafakkirlari o'z diniy-axloqiy ta'limotlarini yaratdi.

Bejizga xalqimizning eng qadimgi diniy – axloqiy ta'limoti bo'lmish Zardushtiylilik, uning Avesto muqaddas kitobida **“Ezgu fikr”, “ezgu so'z” va “ezgu amal”** ilgari surilgan. Ana shu uchta oltin qoidaga amal qilish, insonning erkin va farovon hayot kechirishini ta'minlashi uqtiriladi. Keyinchalik Islom dini shakllangach, diniy hayot kechirish orqali ma'naviy komillikka erishish, shu bilan birga, hurfikrlilik, erkinlik,

ozodlik va farovonlikka tadbir bilan, donishmandlik ila erishish mumkinligini ham ko'rsatib berdi. Umuman xalqimiz tarixida barcha diniy, axloqiy, falsafiy qadriyatlar insonga munosib hayot kechirishga da'vat qilish, ma'naviy yuksalishi orqali farovonlikka erishish mumkinligini uqtirib keldi.

Taraqqiyotimizning keyingi tarixiy bosqichlarida arablar istilosi, mug'ullar bosqini kabi qator bosqinchiliklari oqibatida xalqimiz og'ir tushkun holatda yashashga mahkum etildi. Ozodlik yo'lidagi Muqanna harakati, Jaloliddin Manguberding buyuk jasorati xalqimizning hurriyat yo'lidagi kurashida o'chmas iz qoldirdi. Amir Temurning buyuk davlatchilik barpo etish yo'lidagi adolatli siyosati, Turon davlatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, Renessans davrini boshlab berganligi xalqimizni munosib hayot kechirishini ta'minladi. Temuriylar davridan so'nggi vaziyat xonliklar, amirliklar o'rtasidagi taxt talashish,

mansab uchun kurash avj olganligi milliy taraqqiyotimizni anchayin orqaga surib yubordi. Milliy tarqoqlikni avj oldirdi. Bundan keyinchalik o'zga siyosiy kuchlar ustamonlik bilan foydalandilar.

Ulug' mutafakkirlarimiz yaratgan beqiyos ma'naviy - madaniy meroslarimizni ham soxtalishtirish, diniy qadriyatlarimizni buzib talqin etish, "din - afyundir" qabilidagi siyosat va mafkura vositasida jamiyatni ham insonni ham tutqinlikda ushlab turildi. Maqsad - xalqimizning azaliy orzusi – erkinlik, ozodlik, mustaqillikka yo'l bermaslik, buning uchun yot mafkurani tiqishtirish lozim edi. Sal kam yuz yildan ortiq davom etgan mustamlakachilik siyosati oqibatida, xalqimizga xos bo'lgan ziyolilik, donishmandlik, yaratuvchilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar bug'ildi. Har qanday milliylik o'tmish qoldig'i deb talqin etildi. Bu kabi qadriyatlarga jamiyat rivojiga to'siq bo'luvchi, eskilik sarqiti sifatida, siyosiy – mafkuraviy tus berildi.

Yigirmanchi asr boshlaridagi milliy ozodlik harakati, jadidchilarning ma'rifatchilik faoliyati milliy rivojlanishimizni bir qadar ta'minlagan bo'lsada, milliy tarqoqlik, xalqimizning ham iqtisodiy ham ma'naviy og'ir hayot kechirishi tufayli milliy ziyolilarimizga, jamiyatga nisbatan Stalinchilik qatag'onlik siyosati avj oldirildi. Ammo millatimiz, xalqimizga xos bo'lgan munosib insoniy hayot kechirish istagi, mustaqillik, erkinlik va farovonlikni yuksak qadriyat sifatida ulug'lashi, ardoqlashi kabi fazilatlari so'nmasi, yo'q bo'lib ketmadi.

Mazkur qadriyatni yuzaga chiqarish yo'lida xalqimizning buyuk donishmandlari, rahnomalari va yo'lboshchilarining jasorati tufayli, jamiyatning milliy tiklanish sari intilishi reallikka aylana bordi. Jamiyatning tub o'zgarishida Tarixiy shaxslarning ham o'rni va roli katta bo'ladi.

O'tgan yillar davomida mustaqillikni mustahkamlash, uni avaylab asrash, tinchlik va farovonlikni qadamba-qadam ta'minlab borish asosiy yo'limiz bo'lib keldi. Istiqlol arafasida milliy tilimiz – **o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi** belgilandi. Milliy davlatchilik asoslari tiklandi, mustahkamlandi. Istiqlolning dastlabki yillaridan e'tiboran, ma'naviy, diniy

qadriyatlarimiz tiklandi. Din, Islom dini “afyun” emas, balki, najot va iymon-e'tiqod ilmi ekanligi barchaga ayon bo'ldi. Ramozon va Qurbon hayiti nishonlanib kelinmoqda. Yuzlab yurtdoshlarimiz Haj safariga ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldi. Yurtimizda o'nlab machitlar, madrasalar barpo etildi.

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” g‘oyasi asosida milliy tariximizning uch ming yillik zarvaraqlarini tiklash va o‘rganish asnosida, xalqimiz, yoshlarimiz ongi va qalbida milliy g‘urur va faxr tuyg‘usini qaror toptirish ziyolilarimiz, tarixchi olimlarimiz oldiga vazifa etib qo‘yildi. Milliy tariximizning g‘oyaviy, mafkuraviy asoslari tiklandi. Milliy g‘oyamiz: “Ozod va obod, erkin va farovon hayot qurish” barcha fuqarolarimizni milliy tiklanish sari birlashtirdi.

Barkamol avlod orzusini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan – Ta’limni yangicha asosda tashkil etishning bir qator huquqiy asoslar yaratildi. Ta’lim

to‘g‘risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Maktablar, litsey va kollejlari ochildi. Oliy o‘quv yurtlari yangicha asosda tashkil etildi.

Iqtisodiy sohada mulkchilikning o‘zini oqlaydigan shakliga yo‘l ochildi. Xususiy mulk “kishini kishiga bo‘ri” qilib qo‘ymaydi, balki, boy va farovon, chiroyli hayot kechirish vositasi ekanligi, bu esa, inson ruhiyatiga xos qadriyat ekanligi ayon bo‘ldi. Istiqolga erishish arafasida, og‘ir moddiy – iqtisodiy nochor ahvoldan chiqish uchun xalqimizga, aholiga 300 ming gektar yer shaxsiy tomorqa qilib berilgani tahsinga sazovor bo‘ldi. Bu Milliy tiklanish yo‘lidagi dastlabki moddiy – iqtisodiy chora – tadbir edi. Bu Xalqimizning kelajakka ishonchi ortishida muhim rol o‘ynadi. Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesga yo‘l ochildi.

Ayniqsa, xalq turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlar ko‘rildi, davlat dasturlari qabul qilindi. Istiqolning har bir o‘tgan yili ma'lum nomlar bilan ataldi. Bulardan ko‘zlangan maqsad – barcha sohadagi islohotlarni izchil amalga oshirish, bir qator davlat dasturlarini qabul qilish va undagi belgilangan vazifalarni amalga oshirish asosida, milliy manfaatlarimizni tiklashga erishish bo‘ldi. Kelajak yoshlar qo‘lida g‘oyasi ilgari so‘rildi.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev rahnomoligida, mehnatsevar xalqimizning fidokorona mehnati bilan, dunyo ahliga “cho‘lda ham giyoh undira olishi mumkin ekanligini” yana bir bor isbotlab bermoqda. Hukumatimiz tomonidan o‘zlikni anglashga, milliy manfaatlarimizga javob beradigan xalqchil adolatli islohotlar davom ettirilmoqda. Tarixan qisqa davr davomida xalqimiz milliy o‘zligini anglash mashaqqatlarini yengib, yuksalish sari dadil qadam tashlab kelmoqda. O‘zbekiston tom ma'noda dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun intilmoqda.

Milliy tiklanish yo‘lida boshlangan barcha islohotlar jarayonida gohida oldinga intilish, gohida murakkab holatlarga duch keldik. Xalqimizning ongi va dunyoqarashi bilan jamiyat taqoza etayotgan yangicha ishlash va munosabat ko‘rsatish talablari o‘rtasida nomuvofiqlik holatlari ham ko‘zga tashlandi. Bu tabiiy ijtimoiy holat hamdir.

Zero mustaqillikning yangicha talablari ham bo‘ladi. Uni anglash, ongi, tafakkuridan o‘tkazish ham o‘zoq vaqt talab etadigan hodisadir. Bu esa, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurish talablaridan kelib chiquvchi, bir qator murakkab vazifalarning amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Bular esa milliy yuksalishni amalga oshirishdagi birinchi galdagi vazifalardir.

2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasi** ishlab chiqildi. Strategiya – bu islohotlarni amalga oshirishning aniq mo‘ljallangan yangi harakat dasturidir. Harakatlar strategiyasi jamiyatning barcha sohasida boshlangan islohotlarni tezlashtirmoqda, uni jo‘nbushga keltirmoqda. Odamlarda kelajakka nisbatan ishonchni yanada kuchaytirdi. Ularning turmush tarziga ko‘tarinki ro‘h olib kirmoqda. Buyuk kelajakni yaratish bugundan boshlanadi. Bu uchun kishilar bugun yaxshi yashashlari zarur.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar aynan ana shunday zaruratni yuzaga chiqarishga qaratilgani bilan ham qadrlidir. **“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”** g‘oyasini, rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi – Harakatlar strategiyasi reallikka aylantiradi. Chunki shu asosdagi islohotlar odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga ham da'vat etmoqda. Bunday xalqchil muhitda yashashga intilish esa, xalqimizni har tomonlama mukammal, farovon turmush kechirishni ta'minlaydi. Darhaqiqat, Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish yo‘lini har tomonlama asoslab beradigan, davlatimizni dunyoda rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishini ta'minlab beradigan noyob hujjat hisoblanadi.

2019 yil nashrdan chiqqan Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari kitobida Harakatlar strategiyasi asosida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun ana shu ulkan ahamiyatga molik o‘zgarishlar jarayonining mazmun- mohiyati, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning purma'no fikrlari orqali yorqin ifoda etilgan. Unda Prezident Sh.M.Mirziyoevning asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar joy olgan.

Kitobdan joy olgan o‘ttizdan ortiq masalalarga – jamiyatimizning ijtimoiy, moliyaviy va iqtisodiy, ekologik, huquqiy va qonunchilik, ma'naviy – madaniy, tashqi siyosat, tarbiyaviy kabi sohalariga, shu bilan birga, Yoshlar, xotin-qizlar, nuroniy keksalar hayoti va manfaatlariga qaratilgan purma'no fikr-mulohazalari, bugungi xalqimizni islohotlarning ijodkori va ijrochisi sifatida, milliy rivojlanish sari yetaklovchi ilmiy, g‘oyaviy, siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy mayoq bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti jonajon Vatanimizni yanada obod, xalqimizni baxtli – saodatli qilishdek muqaddas va zalvorli keng vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohotlarni amalga oshirishda mamlakatimizning jonkuyar lideri sifatida jonbozlik ko‘rsatmoqda. Milliy yuksalishga erishmoq uchun Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: **“Bilimli avlod buyuk**

kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa, taraqqiyotning kafolatidir.”

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi**, shuningdek, “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” davlat dasturi, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh muhim tashabbus” kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma'no-mazmuni va ruhi mujassam etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan har bir kunimiz xalqimizning fidokorona

mehnati, bunyodkorlik salohiyatining yana bir amaliy namoyoni, erkin, ozod va farovon hayotimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli sifatida yangi tariximiz solnomasiga tom ma'noda yorqin sahifa bo'lib kirmoqda.

Bugungi shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o'zgarmoqda. “Obod qishloq”, “Obod mahalla” loyihalari asosida olib borilayotgan ishlar “Inson manfaatlari barcha narsadan ustun” tamoyiliga amal qilingan holda aholiga yanada qulaylik yaratish, turmush sharoitini yaxshilash maqsadida olib borilayotgani tahsinga loyiq. Bu dastur yo'lida 4 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Hatto, eng chekka qishloqlarda ham bunyod etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ishlab chiqarish korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari, ta'lim muassasalari, sport inshootlari, mahalla guzarlari kishiga zavqu shavq ulashadi. Butun mamlakatimizni qamrab olgan mazkur dasturlar doirasida 416ta qishloq va 105ta mahallada qurilish va obodonlashtirish ishlari jadal davom ettirildi. Bularning barchasi jonajon O'zbekistonimizning yangi, obod qiyofasini yaratish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jamiyatimizda **“Qonun va adolat – ustuvor”**, **“Jinoyatga jazo muqarrar”** degan muhim prinsiplarni ta'minlash, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma'noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo'yicha ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Ana shunday o'zgarishlar tufayli biz yillar davomida deyarli unutib qo'ygan tartib-intizom, qonun-qoida, odamlarning haqli talablari bilan hisoblashish kabi eng muhim tamoyillar hayotimizda tobora chuqur o'rin egallamoqda.

“2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa **“Milliy tiklanishan milliy yuksalish sari”** g'oyasning uzviy davomi bo'ldi. Biz mazkur dastur asosida tiklanishning yangi davriga qadam qo'ydik. “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning

2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamarab olganligi bilan xarakterlidir.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. Farmonda belgilangan strategiya loyihasi va unda ko'zda tutilgan muhim strategik masalalar respublikamiz ekspertlari hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi.

Strategiya loyihasi o'ta dolzarb, ya'ni aholining turmush tarzini yanada yaxshilash masalalarini kompleks o'rganish, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, mamlakatda qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab

chiqilgan edi. Harakatlar strategiyasini kelajakda beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha amalga oshirish ko'zda tutildi. Ular quyidagilar:

Birinchi ustuvor yo'nalishda davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish, xususan, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;

Ikkinchi ustuvor yo'nalishda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

Uchinchi ustuvor yo'nalishda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

To'rtinchi ustuvor yo'nalishda mamlakatda ijtimoiy sohani rivojlantirish;

Beshinchi ustuvor yo'nalishda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi muhim vazifalar belgilandi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyasiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan

rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Inson va uning manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining **birinchi ustuvor yo'nalishi** bu, davlat va jamiyat

qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirishga e'tibor qaratdi.

Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan dastur bu **ikkinchi yo'nalish** hisoblanadi. Ya'ni sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish belgilab berildi. Uning muhimligi, shuningdek, sud tizimini isloh qilish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish, strategik dasturning yana muhim ustuvor jabhasi, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishni ko'zlaydi. Strategiyada xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari ham keng o'rin olgan.

To'rtinchi muhim ustuvor yo'nalish etib belgilangan keyingi masalalar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish inson manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Una barcha ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish,

ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ham belgilandi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish bu, davlatimiz xavfsizlik tizimi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash beshinchi ustuvor yo'nalishda belgilab berildi.

Bir so'z bilan aytganda, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi** 2017 yil O'zbekiston Respublikasida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da e'lon qilinganligida ham ramziy ma'no bor, albatta.

Strategiyaning yana bir muhim yo'nalishi bu, korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashishdir. Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Xususan, unda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yildan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, prokuratura va sud-huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojatlarni tahlil etib borish qoidalarini o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi. Yuqori davlat organlari bilan chatishib ketgan bir necha uyushgan jinoiy ishlar fosh etildi.

2017 yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoiy ish qo'g'atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin, bu davrda 2016 yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoiy ishlar 22 foizga kamaydi. Korrupsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararning 77 foizi undirildi. 374 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlandi.

Mamlakatda har payshanba kuni "Huquqbuzarliklarni oldini olish kuni" deb e'lon qilinib, bu kunlari mehnat jamoalari va yashash joylarida huquqni himoya qilish organlari vakillari aholini ro'y berayotgan jinoyatlardan ogoh etib borish, aholini

huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylandi. Shuningdek, payshanba kunlari ichki ishlar tayanch punktlarida "ochiq eshiklar kuni" o'tkazish, fuqarolarni qabul qilish ishlari olib bori qoidasi o'rnatildi.

2018 yil 19 fevralda O'zbekiston ichki ishlar vazirining bergan ma'lumotlariga binoan 2017 yilda 1426 ta korrupsiyaviy jinoyatlar fosh etilib, undan 171 tasi poraxo'rlik, 109 tasi tovlamachilik, 517 tasi firibgarlik, 125 tasi noqonuniy valyuta aylanmasini amalga oshirish, 19 tasi soxta pullarni ishlab chiqish, 190 tasi davlat mulkini o'g'irlash va unga kamomad keltirish kabi jinoyat turlarini tashkil etdi. 2017 yilda jinoiy harakat qilganligi uchun 230 ta ichki ishlar organlari xodimlari ustidan jinoiy ish qo'zg'atildi, 8000 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. Lekin 2017 yilda 73.692 ta jinoiy ishlar fosh etilib, bu 2016 yilga nisbatan 15,7 foizga kamaygani ham qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan yillarda O'zbekistonda Harakatlar strategiyasining muhim huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo'llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident, hokimiyat va Xalq qabulxonalariga ishonchi ortdi. Xalq dardini davlat hokimiyati organlariga to'g'ridan-to'g'ri yetkazish imkoniyati yaratildi.

3-mavzu: "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Reja:

1. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

2. O'zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.

3. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi.

1. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

"2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 2022 yil 28 yanvarda Harakatlar strategiyasining uzviy davomi, O'zbekistonning kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan **eng muhim hujjat** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **«2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»**gi Farmoni qabul qilindi. Kelgusi 5 yilga mo'ljallangan **Taraqqiyot strategiyasi** tasdiqlandi.

"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan. Ular quyidagilar:

— inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan 7 ta ustuvor yo'nalishdagi masalalarni qamrab olgan.

Strategiyada Davlat Rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi va saylovoldi dasturida ilgari surilgan tashabbuslar aks ettirilgan. Muhokamalar davomida davlat organlari mas'ul xodimlari, tegishli soha mutaxassisleri, ilmiy doira vakillari hamda mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirokida konferensiya va davra suhbatlari tashkil etildi.

Strategiyada mutlaqo yangi yondashuv qo'llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etilmoqda. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilgan.

Harakatlar strategiyasidan farqli o'laroq, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022 yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar ham aniq. Ular, o'z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etilmoqda.

Ikkinchidan, Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasi muhokamasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta'minlandi. Bunga, xususan, faqatgina uchta asosiy elektron platformaga jamoatchilik muhokamalari yakuni bo'yicha kelib tushgan 17 **mingdan** ziyod fikr-mulohazalar yaqqol dalil bo'la oladi. Bunda, **besh yil avval** Harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan xalq bilan muloqot tizimi muhim rol o'ynaganini alohida e'tirof etish joiz. Chunki aynan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida davlat organlarining aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi, yildan-yilga shaffoflik ortib bordi, bu esa o'z-o'zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartirdi, uning faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligini kuchaytirdi. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo'yish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Uchinchidan, Ushbu dasturiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning

rivojlanish tendensiyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. **«Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari»** degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo'lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta'minlangani holda davom ettiriladi, to'plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat'iylik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsienti ortib, olib boriladigan islohotlarning samaradorligi ortadi.

To'rtinchidan, Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo'yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoevning **«2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»**gi Farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas'ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan. Ushbu Komissiya a'zolari Taraqqiyot strategiyasining bevosita amalga oshirilishi va tegishli mutassaddilar ustidan bu borada nazoratning ta'minlanishiga mas'ul etib belgilangan.

Shu o'rinda, tegishli bndlarning aniq ijrochisi va uning ustidan nazorat qiluvchisi belgilanishi bilan bir qatorda, sarf-xarajatlar uchun rejalashtirilgan mablag'larning aniqligiga ham e'tibor qaratish lozim. Bu, bir tomondan rejadagi ishlarning samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan tegishli mutassaddilar mas'uliyatining ham ortishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarning yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalaru sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining **xalq vakillari** – deputatlar oldidagi hisobdorligining ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi. Eng muhimi, har bir maqsadning amalga oshirilish jarayoni aholi tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishini ta'minlash maqsadida elektron platformalar ishga tushiriladi va muntazam takomillashtirib boriladi.

Oltinchidan, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning ilk yili – 2022 yilda amalga oshirilishi belgilab olingan vazifalarga ajratilayotgan mablag'lar miqdorining ham bir necha barobar ortganligini ko'rish mumkin. Xususan, Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturida umumiy qiymati **55 trln. so'm va 11,7 mlrd.** dollarlik 398 ta chora-tadbirning ko'zda tutilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Vaholanki, 2021 yilda belgilangan davlat dasturini bajarish uchun **29 trln. 492,7 mlrd. so'm va 2 mlrd. 600,4 mln.** AQSh dollari, 2020 yildagi davlat dasturini bajarish uchun esa **18 trln. 171,4 mlrd. so'm va 10 mlrd. 301,5 mln.** AQSh dollari ajratilgan edi. Bu esa xalqimizning munosib turmush tarzini tashkil etish yuzasidan amalga oshirayotgan izchil islohotlarining uzviy davomi bo'lib, unga ajratilayotgan

mablag'lar yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rsatadi.

2. O'zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.

2. O'zbekiston-2030 strategiyasining asosiy yo'nalishlari - insonparvar davlat qurish yo'lida.

Har bir davlat jamiyat va o'zining fuqarolarining hayotini yaxshilashni maqsad qilib dasturlar, strategiyalar ishlab chiqib uni amalga oshirib boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida rivojlanishning yangi maqsadlarini o'z ichiga olgan yo'nalishlarni belgilab, aniq samaradoshlik va barcha davlat institutlarining faoliyatini mufoviqlashtirgan holda harakat qilish uchun "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib qabul qilindi.

Xususan, 2023 yil 11 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Strategiyada 5 ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad o'z aksini topgan.

Birinchi yo'nalishi: har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishni maqsad qilib, uning ichida to'rtta asosiy yo'nalishlarga yanada alohida e'tibor beriladi.

Xususan,

Birinchidan, ta'imning barcha bosqichlarini rivojlantirish va buning uchun 12 ta maqsadni o'z ichiga oladigan harakatlarni mujassamlashtirilgan. Bu maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot ishlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi yo'nalish: Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar 9 ta maqsad o'z ichiga oladi. Unda onalik va bolalikka oid, tibbiyot xodimlari faoliyatiga oid, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va kasalliklarning oldini olishga oid bir qator maqsadlar ko'zlanadi.

Uchinchi yo'nalish: Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar 8 ta maqsad qamrab oladi. Unda mamlakatdagi barcha yoshlarni qamrab oladigan maqsadlarni amalga oshirish ko'zlanadi. Sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

To'rtinchi yo'nalish: Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlarda 8 ta maqsad nazarda tutilgan bo'lib, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash maqsadlari o'zlangan.

Ikkinchi yo'nalish: barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashda 17 ta maqsad qo'zlangan bo'lib. Ularda eng asosiy aholining daromatini yaxshilash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish nazarda tutiladi.
Xususan,

- 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish.

- Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish.

- Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish.

- Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.

- O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish.

Uchinchi yo'nalish: suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishda jami 12 ta maqsad nazarda tutiladi. Chunki, XXI asrga kelib insoniyat oldida tabiatda sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlar va yaroqli suv tanqisligi global muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston sharoitida ham shundan kelib chiqib bir qator maqsadlar belgilangan.

Jumladan, Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va boshqa bir qator maqsadlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi yo'nalish: qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishga qaratilgan 16 ta maqsad belgilab olingan. Unda xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar, parlamentning faoliyati va haraqatlarini yanada faollashtirish, inson huquqlarining kafolatlarini yanada mustahkamlash va boshqa bir qator maqsadlar belgilab olingan.

Beshinchi yo'nalish: "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishda jami 11 ta maqsad ko'zlangan bo'lib, unda ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish, Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish, Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etishni ko'zlagan.

Shuningdek, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar, jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish, Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish ham maqsad qiladi.

Umuman olganda "O'zbekiston-2030" strategiyasi amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, maqsadlarda ko'zlangan choralarni tizimli ravishda amalga oshirib kelmoqda.

3. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi.

Xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilishi. Azaldan oddiy xalqning fikri davlat rahbari uchun muhim bo'lgan. Shuni inobatga olgan holda 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. **2017 -yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"** deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi. Ana Shu muloqotni amalda yo'lga qo'yish, inson manfaatlarini ta'minlash maqsadida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi joriy etildi.

Ijtimoiy adolat ta'minlangan davlatda xalqning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlikka intilishi va ishtiyoqi hosil beraveradi. Shu ma'noda mustaqil Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida yana bir yangi davr, yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi, deyishga barcha asosimiz bor. **Strategik maqsadlarimiz aniq va ravshan –**

demokratik, insonparvar davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish, pirovardida, xalqimizni hayotdan rozi qilish, uning yanada farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish. Bunday yuksak maralarga xalq bilan muloqot qilib, odamlarning ichiga kirish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash orqaligina erishish mumkin. **2016-yil 24 -sentabrda** O'zbekiston hukumati portalida Bosh vazirning virtual qabulxonasi pm.gov.uz (**2017 -yil yanvar oyidan Prezident virtual qabulxonasi**) ochilishi murojaatlar bilan ishlash tizimini bugungi shiddatli XXI asr talablariga mos holda takomillashtirish imkonini berdi. Hukumat rahbari bilan oddiy odamlar o'rtasida hech qanday vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi. Shu bois ham mazkur virtual qabulxona ishga tushgan kuniyoq mamlakatimizning turli joylaridan mingga yaqin ariza, shikoyat va takliflar kelib tushdi. Virtual qabulxona ochilgunga qadar ham mamlakatimizda davlat organlarining "Ishonch telefoni" Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mavjud edi. Bu sohada maxsus "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Lekin, ming afsuski, bu qonun amalda to'la ishlamaganini, uning ijrosini nazorat qilish o'z holiga tashlab qo'yilganini, aniqrog'i, bu masalaga ikkinchi darajali bir ish sifatida qaralganini bugun ochiq tan olishga majburmiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning **2016-yil 28 -dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"**gi farmoniga binoan **Xalq qabulxonalari** tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi. **2017 -yil dekabrda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – **Tezkor davlat xizmatlari agentligini** tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

Bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 7-2-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlasa bo'ladi. Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan-yangi o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi – Xalq qabulxonalari instituti o'tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko'ra hali etilishi lozim bo'lgan vazifalar yanada ko'proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo'y ko'rsatadi. Prezidentning joylarda Xalq qabulxonalari, virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo'lish, odamlarning ko'p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o'rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining (keyinchalik **Prezident Administratsiyasi**) fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan mamlakatimizning barcha shahar hamda tumanlarida, chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda ommaviy qabullar, xalq bilan yuzma-yuz suhbatlar tashkil etildi. Qisqacha qilib aytganda, xalq ichiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig‘ilib qolgan dardlari, allaqachon hal qilinishi mumkin bo‘lgan-u, lekin to‘rachilik, o‘zibo‘larchilik, sansolarlik oqibatida yillar davomida yechilmay kelgan muammolar yuzaga chiqa boshladi. Eng muhimi, odamlar dardlarini aytishi, katta-yu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz gaplashishi, muammolariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, ularning talab va takliflariga ham quloq tutildi, bu takliflar yig‘ilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimizning **“Rahbarlar xalqning xizmatkori bo‘lishi zarur”**, **“Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi, xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”**, degan qat’iy talablari amalda o‘z ifodasini ko‘rsatdi. Bugungi kunda ana shu izlanishlar samarasi sifatida ko‘plab yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilib, Prezidentning virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, qator muammolar bilan birga, aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish borasida ham ko‘plab yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Holbuki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida **2003-yildan** boshlab tadbirkorlik subyektlarini **“Yagona darcha”** tamoyili asosida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun shahar, tuman



hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan. **2016-yildan** esa ular negizida **Davlat xizmatlari ko‘rsatish markazlari** ish olib borgan. Ammo ushbu sa’y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo‘ldi. Binobarin, odamlarning har bitta hujjat uchun turli-tuman idoralarga murojaat qilishi, soatlab navbat kutishlar, qog‘ozbozlik, turli ovoragarchiliklar barham topmadi. Shu boisdan

mamlakatimizda davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish borasida keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg‘or mexanizmi sifatida jamoa bo‘lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya’ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko‘rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo‘yilishi lozim.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog‘ida **“Mening fikrim”** deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi. **2018-yilda** O‘zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo‘ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalar bo‘yicha o‘z fikr va tashabbuslarini e’lon qilishlari mumkin. “Mening fikrim” veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini

boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratildi.

Portal quyidagi tartibda ishlaydi:

1. Fuqarolar o'z tashabbuslarini portalga yozishadi
2. Ekspertlar ko'rib chiqqanidan so'ng ushbu tashabbus portalda e'lon qilinadi
3. Portalda ushbu tashabbuslarga jamoatchilik tomonidan ovoz beriladi
4. Ovozlar yetarli darjaga yetgach tashabbus Oliy Majlis yoki Xalq deputatlari

Kengashlari e'tiboriga taqdim etiladi

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak. 2017-yil 12-dekabrda Prezidentimizning **“Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Farmoni qabul qilindi va ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi **Davlat xizmatlari agentligi** tashkil etildi. Bu ham, albatta, aholiga barcha sohalarda qulay imkoniyatlar yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish yo'lida tashlangan yana bir muhim qadamdir. Ilgari **“Yagona darcha”** tizimi faqatgina tadbirkorlarga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, endilikda oddiy fuqarolarga ham davlat idoralari bilan bog'liq ishlarda ushbu tizim orqali xizmat ko'rsatish maqsad qilindi. Natijada aholiga eng zarur va talab yuqori bo'lgan davlat xizmatlarini **“yagona darcha”** tamoyili asosida ko'rsatish uchun mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida Davlat xizmatlari markazlari tarmog'i vujudga keldi.

Mazkur tizimning davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan va amalda munosib samara bergan Xalq qabulxonalari negizida barpo etilgani ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki Shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro hayoti davomida turli ehtiyojlar bilan davlat idoralariga duch kelishi tabiiy hol. Xalqning davlat idoralari bilan munosabatlarida yengillik yaratish, mushkulini oson qilish esa bugungi kunda davlatimizning asosiy e'tibor markaziga ko'tarilgan. Davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi, zamonaviy konsepsiyasida fuqarolarning navbat kutib turishlarini keskin kamaytirish, hujjatlarni elektron tarzda yuritish hisobiga qog'ozbozlikni qisqartirish, turli xil buyruqbozlik va sansolarliklarga chek qo'yish ko'zda tutilgan. Eng muhimi, davlat xizmatlari markazlarining ish prinsipi **“Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi”** degan tamoyilga asoslangan.

Qisqa fursatda respublikamizdagi har bir tuman va shaharda **Davlat xizmatlari markazlari** tashkil qilindi. **2018-yil boshida** ushbu markazlarda aholiga qariyb 30 turdagi xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, 1-apreldan e'tiboran bunday xizmatlar soni 50 tadan ortdi. Iyun oyidan boshlab esa ular qatoriga yana 30 dan ortiq xizmat turlari qo'shildi. Bu odamlarning qimmatli vaqtlarini tejash bilan birga, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish imkonini ham bermoqda. Misol uchun, yoshlar oila qurganda nikohni qayd etishi, farzand dunyoga kelganda unga guvohnoma olish, bolalarni bog'chaga joylashtirish, mashinani boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasini olish yoki yangisiga almashtirish kabi kundalik hayotimizda ko'p bora duch keladigan ishlar endilikda Davlat xizmatlari markazida hal etib beriladi. Buning uchun turli idoralarga qatnashga, uzoq vaqt kutishga endi hojat yo'q.

Avvalo, Shuni chuqur anglashimiz zarurki, bugun mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarish va islohotlarning zahirida **“Nima qilsak odamlarimizning tashvishi kamayadi, ularga tejamli va qulay bo'ladi?”** degan jiddiy savol turadi. Ana

Shu yangilik va islohotlarning barchasi odamlarni ko'pdan beri qiynab kelgan muammolarni bartaraf etish, ularni bugungi hayotdan mamnun etib, ertangi kunga bo'lgan ishonchini amalda mustahkamlashga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda yurtimiz hayotida yangilik bo'lgan mazkur tizim faoliyatini boshlashda ham puxta o'ylab qadam tashlandi. Bu borada davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini muntazam ravishda o'rganib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirga qadar Angliya, Germaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Rossiya Federatsiyasi, Gruziya, Ozarbayjon, Litva, Singapur, Qozog'iston va boshqa davlatlar qonunchiligi o'rganilib, Avstraliya va Kanadaning davlat xizmatlari elektron tizimi atroflicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra ma'lumotnomalar tayyorlanib, ularning ijobiy tajribasidan kerakli o'rinlarda foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Yana shuni aytish mumkinki, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini olish, ipoteka shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish, tibbiy faoliyat huquqini litsenziyalash, elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish, haydovchilik guvohnomasini yangi namunadagisiga almashtirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish, kommunal xizmat kabi masalalarda odamlar ko'plab muammolarga, ortiqcha sarsongarchiliklarga duch kelar edi. Endilikda bunday masalalar Davlat xizmatlari markazida qisqa vaqtda hal etib beriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini yangisiga almashtirmoqchi bo'lgan kishi markazga kelib, eski haydovchilik guvohnomasi va fuqarolik pasportini beradi va belgilangan miqdordagi to'lovni istalgan shaklda to'laydi. Mutaxassislar Shu yerning o'zida fuqaroni suratga olib, tegishli hujjatlarni hech qanday muammosiz rasmiylashtiradi. Qarabsizki, yarim soat ichida fuqaro yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasini olib ketadi. Bolalarni bog'chaga joylashtirish masalasida ham ota-onalar shu paytgacha turli qiyinchiliklarga duch kelganligini ko'pchilik yaxshi biladi. Endilikda bu masala ham markazda hal qilinadigan bo'ldi.

4-mavzu: Inson haq-huquqlarini himoya qilish.

Reja:

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta'minlash borasida sud organlarining faoliyati va O'zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
2. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta'minlash borasida sud organlarining faoliyati va O'zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Istiqlol yillarida insonning ishonchli konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan qonunlarning qabul qilinishiga asosiy e'tibor qaratildi. Shuningdek, sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog'liq bo'lmagan hokimiyat sifatida shakllantirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari vujudga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi.

Jumladan, 1994-yili Jinoyat kodeksi qabul qilinganida 13 ta moddada jazo chorasi sifatida o'lim jazosi ko'zda tutilgan edi. 1998-yili bu jazo turi jinoyat kodeksining 5 ta moddasidan olib tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2005-yil 1-avgustdagi

“O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, 2008-yil 1-yanvaridan mamlakatimizda jinoiy jazo turi sifatida o‘lim jazosi bekor qilindi va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosining joriy etilishi butun dunyoda katta aks-sado berdi. Bu boradagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e‘lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etib, jahon tendensiyalariga to‘la mos keladi. Sud-huquq sohasidagi islohotlar xususida so‘z yuritganda, O‘zbekistonda o‘tgan qisqa davr mobaynida yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi muvaffaqiyatli hal etilganiga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Sudlar ixtisoslashtirilib, aniqroq aytganda, fuqarolik, jinoiy va xo‘jalik ishlari bo‘yicha alohida sudlar tashkil etilib, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o‘zlariga xos bo‘lmagan vazifalardan ozod qilindi. Sudyalarning mustaqilligi va huquqiy kafolatlari tizimining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda “sudyalarning mustaqilligi” tushunchasi mustahkamlandi va yangi huquqiy kategoriya – “sud hokimiyatining mustaqilligi” joriy etildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 106-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilib, uni amalga oshirishning aniq protsessual-huquqiy mexanizmi yaratildi. Bu fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolatiga aylandi. Yana bir yangilik bu – Yarashtiruv institutining joriy etilishi jinoyat protsessi qonunchiligini takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Xo‘sh, bu yerda gap nima haqda bormoqda? Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxs, agar muqaddam sudlanmagan bo‘lsa, o‘z aybini bo‘yniga olsa, jinoyat oqibatida keltirgan zararni to‘lasa, jabrlanuvchi bilan yarashsa, sud ishni harakatdan to‘xtatadi. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi haqida so‘z yuritilar ekan, ushbu materialda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda parlament palatalarining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surgani ta’kidlanadi. Konsepsiyada belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatini kuchaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, sud-huquq islohotlari barcha istiqbolli yo‘nalishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat jamiyat va davlat tuzilmasini demokratlashtirish va liberallashtirishning natijasi, balki uning kafolati sifatida xizmat qilib, amalda mamlakatning “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida olg‘a harakatlanishini ta’minlaydi. Axborot materialida qayd etilishicha, O‘zbekistonda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadlari sud-huquq tizimining mohiyatini o‘zgartirish, uni inson huquqlarini samarali ta’minlashning asosiy kafolatiga aylantirish hamda sud hokimiyatining tom ma’nodagi mustaqilligini ta’minlash hisoblanadi. Ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishi sifatini yaxshilash maqsadida “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, ularning jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik ishlari bo‘yicha ixtisoslashuvi mustahkamlandi, ishlarni apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqish tartibi joriy qilindi. 2008-yil 1-yanvardan e‘tiboran “Xabeas korpus” institutining joriy qilinishi,

ya'ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi natijasida sudlarning fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilish bo'yicha vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Jinoyat ishi qo'zg'atish, ish yuzasidan ayblov xulosasini o'qib eshittirishni sudlar vakolatidan chiqarilishini nazarda tutuvchi o'zgartishlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga kiritilib, bu sudlarning xolisligini, betarafligini ta'minlash, jinoyat protsessida tortishuv prinsipining kuchayishiga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi o'laroq, O'zbekistonda quyidagilarga erishildi: og'ir jinoyatlar tasnifi kamaytirilib, og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi; sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar joriy etildi; iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. 2013-yili ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar soni 2000-yil bilan solishtirganda, ikki marotabadan ziyodga kamaydi.

Xususan, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi to'g'risidagi qonun qabul qilinganidan so'ng 412 milliard so'mlik zararni qoplagan 26000 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llandi. Mamlakatda yarashuv instituti joriy etilganidan buyon 138 ming 527 ta ish bo'yicha 150 ming 346 shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llanildi. Bugun O'zbekistonda 60 turdagi jinoyatlar bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati mavjud. Amnistiya aktini qo'llash sudlar vakolatiga berilgan. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikada amnistiya aktining e'lon qilish tartibi joriy qilingan. Har yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80 va 93-moddalariga binoan, amnistiya haqida akt qabul qilinib, uning asnosida jazodan ozod qilish, mahkumlarning ozodlikka chiqishi va ularning o'z oilalari bag'riga qaytishi bilan bir qatorda, amnistiya qilinganlarning salomatligini mustahkamlash, ularning turmush shart-sharoitlarini yaxshilashga va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish yuzasidan ham ishlar amalga oshiriladi.

2008-yilning 1-yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilinishi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari oliy jazo – umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazo turi faqatgina ikki turdagi jinoyatlar – terrorizm va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun tayinlanadiki, ushbu holatlar bo'yicha muqobil, uncha og'ir bo'lmagan jazo turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Insonning huquq va erkinliklari samarali himoya qilinishini har tomonlama ta'minlashga yo'naltirilgan sud-huquq islohotlarining hayotga tatbiq etilishida advokatura institutini mustahkamlash muhim ustuvorlik hisoblanadi. Ushbu institutni yanada takomillashtirish maqsadida 2008-yil 1-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada muhim dasturulamal bo'ldi. Ushbu Farmon fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaviy me'yorni amalga oshirish, advokatura instituti mustaqilligini ta'minlash, uni malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlik kasbining nufuzini oshirish hamda insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish

borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tuzildi, 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2009-yil sentabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 52-moddasiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi haqidagi muhim me'yor mustahkamlab qo'yildi. O'rnatilgan bunday tartib sud ishida yurisprudensiya sohasidagi maxsus bilimlardan bexabar shaxslarning ishtirokiga yo'l qo'ymaslik va fuqarolarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Sud qarorlarining qat'iy bajarilishi odil sudlov faoliyatining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida sud qarorlarining majburiy ijro etilishi samaradorligini oshirish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijro etilishi sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, sud qarorlari ijro etilmasligi va ularning bajarilishiga to'sqinlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

2016-yil oxirlaridan boshlab, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni sohani yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, faoliyati samaradorligini yuksaltirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini yuzaga keltirish, jismoniy, yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, yuksak axloqiy-irodaviy, kasbiy fazilatlariga ega, yuklatilgan vazifalar, amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan kadrlarni shaffof tanlov asosida ishga qabul qilish, qolaversa, sudlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash mexanizmini davrimizning yuksak talablari darajasida tashkil etishga, tizim xodimlariga, sudyalarga alohida mehnat sharoitlari yaratish, lavozim maoshlariga ustamalar hamda malaka-mansab darajasi uchun qo'shimcha haq miqdorlarini berishga qaratilgan uchta Farmon chiqarildi. Boshqacha aytganda, sud-huquq tizimidagi islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida sud hokimiyati mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipiga og'ishmay amal qilinishi kerakligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish holatlari bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rish, sud faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari hamda aholi bilan hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini keng qo'llashga e'tibor qaratilishi alohida ta'kidlab o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligining sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi takliflari ma'qullandi.

Ushbu Farmonga muvofiq, 2017-yil 1-apreldan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan muqobil jazo turlarini qo‘llashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatildi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko‘p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirildi. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va ekskumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqi berildi. Tergovning to‘liq emasligini sud muhokamasi jarayonida to‘ldirish mexanizmlarini joriy etish orqali sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergov yuritishga qaytarish bekor qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqish bo‘yicha bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi. Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturni amalga oshirish bo‘yicha komissiya tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligiga sud-huquq tizimidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish vazifasi topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, sud hokimiyatining ikki oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudining mavjudligi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanishiga, yagona sud amaliyoti ta‘minlanmasligiga olib kelganligi uchun birlashtirildi. Bundan tashqari sudyalarning hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadigan, nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini tubdan yaxshilash hamda yuqori malakali sudyalarning korpusini shakllantirishga mas‘ul bo‘lgan organ – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning 21 nafar bo‘shagan ijro apparati shtat birligi kengashga o‘tkazildi. Kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan Senat tomonidan tasdiqlanadigan kengash raisi va ko‘pchilikni tashkil etuvchi sudyalarning hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati instituti vakillari, shuningdek, huquq sohasidagi malakali mutaxassislar orasidan Prezident tomonidan tayinlanadigan 20 nafar a‘zodan iborat bo‘ldi. Kengashning 13 nafar a‘zosi doimiy, 8 nafar a‘zosi esa jamoatchilik asosida o‘z faoliyatlarini amalga oshirmoqda. Sudyalarning oliy kengashiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislaridan tashqari barcha sudyalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda lavozimlariga tayinlash va lavozimlaridan ozod etish bo‘yicha vakolatlari berildi. Sudyalarni kasbiy jihatdan tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek, sudyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish ham Sudyalarning oliy kengashi zimmasiga yuklatildi.

Ilk marotaba davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi. Davr talablardan kelib chiqib, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ushbu Farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar etib o'zgartirildi. Bunda mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik sub'yektlarining ortib borishini hisobga olgan holda tumanlararo tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi va O'zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasining sud organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish hamda odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik rolini kuchaytirish borasidagi takliflari qabul qilindi. Sudlar faoliyati to'g'risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari tomonidan brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi hamda shaffofligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalar korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzish haqidagi takliflari qabul qilinib, bu borada komissiyalar tuzildi. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga Oliy sud va uning huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining yuqori malakali, tashabbuskor, xizmat majburiyatlarini, vazifalarini halol va samarali bajarayotgan sudyalariga, xodimlariga Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda oylik mehnatga haq to'lash fondining 100 foizigacha miqdorda ustama (pul ta'minoti) to'lash huquqi berildi. Shuningdek, ushbu Farmonda malaka va mansab darajasiga ega bo'lgan sudyalarga, ularga tenglashtirilgan shaxslarga avtomobillar sotib olish uchun, Konstitutsiyaviy sud, Sudyalar oliy kengashi, Oliy sud, quyi sudlar apparatlari, Oliy sud huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlariga esa uy-joy sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berishni nazarda tutuvchi takliflar bildirildi. Ayni paytda bu borada ijobiy ishlar qilinayotganligi ahamiyatlidir.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va nufuzini oshirish, uni ilgarigi jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiytdagi demokratik o'zgarishlarning muhim vositasi bo'lgan institutga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganligi, sud-huquq tizimini isloh qilish hamda takomillashtirish davrimizning yuksak talablaridan biri ekanligi yig'ilishda alohida ta'kidlab o'tildi. Asosiy

maqsadimiz, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib tarzda himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdan iborat ekanligini Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishlarida ko'p marotaba qayd etib o'tmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Farmonga, asosan, quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi: birinchidan, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash; ikkinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish; uchinchidan, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish; to'rtinchidan, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish va boshqalar.

2. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Ma'lumki har bir jamiyat davlat institutlari tomonidan boshqarilar ekan har ikki tomonni o'zaro murosaga keltirish va rivojlanish uchun albatta yagona qonunlar tizimi talab etiladi.

Xususan, bu qarash eng qadimga davrdan boshlab amal qilib kelmoqda, ya'niki dastlab ahloqiy qo'rinishdagi qoidalar so'ngra ustivorlikni muqarar qilib belgilaydigan qonunlar to'plami bilan almashirib borildi. Bu qadimdagi Yunon, Rim, Xitoy, Hindiston hamda Markaziy Osiyodagi davlatlar hayotidan ham ma'lum. Masalan, o'rta asrlardagi eng ulkan davlat hisoblangan Amir Temur davlatida "Temir tuziklari" muhim qonuniy hujjatlardan hisoblansada ular konstitutsiya deb nomlangan. Biroq shu hujjatning vazifasini o'tagan.

Dunyodagi ilk konstitutsiya hisoblanuvchi AQSh Konstitutsiyasi 1789 yili qabul qilingandi. O'z davri uchun demokratik va mukammal sanalgan bu asosiy hujjat ham kamchiliklardan xoli emasdi. Amerikaliklar muqaddas hisoblaydigan qomusga bugungacha jami 27 marta tuzatish kiritilgan. Chunki davr vaqt o'zgarishlari asosiy qonunning ham o'zgarishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Yuqorida aytilgani kabi Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflil solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Avvalambor, konstitutsiyani ishlab chiqishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, O‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Xususan, bundagi ilk qadamlardan biri O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda e’lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta’ sis etadi” degan qoida mustahkamlangani bo‘lgan. Aynan ushbu deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning “yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos” bo‘lishi qayd etilgan.

Shuningdek, Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilishi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlanganligini ko‘rish mumkin.

Ikki yillik mehnat najitasida Konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma’qullash uchun 1992 yil 8 sentyabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e’lon qilishga qaror qildi. Ushbu yig‘ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992 yil 26 sentyabr kuni tayyor bo‘ldi va shu kuni matbuotda chop etildi.

Konstitutsiya loyihasi o‘tkazilgan muokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida ancha tuzatildi va qayta ishlandi. So’ngra, 1992 yil 21 noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi.

Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o‘zgartishlar kiritilgach, 1992 yil 8 dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e’tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

Shunday qilib, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilgan sanadan e’tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul

qilingan kuni davlatimiz yangidan tug'ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo'yildi.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang bo'lish, jahondagi xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlarni inobatga olib asosiy qonundagi o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etdi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish, bunida xalq muhokamasi uchun referendum tashkil etish tashabbusi o'rta tashlandi.

Shu bilan aniq maqsadga qaratilgan tayyorgarlik bilan, 2023 yil 30 aprel kuni referendum o'tkazildi. O'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu bilan fuqarolarning ko'pchiligi yangi tahrirdagi Qonstitutsiyasi maqullab ovoz berdi. Chunki, bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etdi.

Xususan, undagi birinchi bo'lim. asosiy prinsiplar bobining 1-moddasida aytilgani kabi: O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

Shuningdek, 14-modda "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi" degan normaning kiritilish, eng asosiysilardan biri, 20-modda "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

.Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi" degan normalarning kiritilishi asosiy hujjatning insoniylik va xalq manfaatlariga qaratilganini anglatadi.

Xususan, "xalq — davlat hokimiyatining birdan-bir manbai" ekanligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi printsiplari, ya'ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston — inson sha'ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa

xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi printsiplarni va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta'minlash; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak!

Yuqorida aytib o'tilgan moddaning ikkinchi bandi birinchi qismida belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi to'g'risidagi norma ham aytib o'tilgan fikrlarning tasdig'idir. Hech shubhasiz, ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston — ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyamiz Muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti printsiplariga sodiqlik. Bu bilan Konstitutsiyamiz insonning asrlar davomida dunyoda shakllangan asosiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va asosiy huquqlarini o'zida mujassam etgan holda, insonning oliy qadriyati — uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati ekanini e'lon qildi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o'laroq, uning yangi tahririning asosiy g'oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash, ilgari mavjud bo'lgan “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasini yangi: “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o'zgartirishdan iborat.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa'y-harakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya'ni bu Konstitutsiya, tom ma'noda, O'zbekona “Inson huquqlari to'g'risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko'paydi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda birinchi marta “O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega

bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" (1-modda), degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat, deganda, avvalo, o'z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi — har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, hozirgi vaqtda ko'pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda, o'z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo'limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume'tirof etilgan printsiplari mustahkamlangan. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bu jihatlar ham inobatga olindi.

Umuman olganda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaisi mamlakat rivoji va taraqqiyoti uchun eng muhim hujjat sifatida yanada mustakamlandi. Buni amalga oshirish uchun 2023 yil 8 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini ta'kidlash lozim.

Ma'umki, O'zbekistonda barcha davlat institutlari xalq manfaatlari uchun xizmat qilishi asosiy qonun, qonunlarda hamda qonun osti hujjatlarda mustahkamlanib qo'yilgan. Navbatdagi eng muhim vazifa aynan ushbu normalarning hayotda aks etishi edi. Shundan kelib chiqib 2016 yil 17 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida F-4760-sonli Farmoyishi qabul qilindi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev faoliyatining dastlabki kunidan boshlab "inson manfaatlari uchun", "davlat institutlari – xalq xizmatini qilishi", "davlat – jamiyat muloqoti" kabi eng muhim tashabbuslarni ilgari surib hayotiy natijalarga erishdi.

Shu o'rinda "Muloqot" tushunchasiga bir oz izoh berib o'tamiz. Muloqot yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

Binobarin, jamiyat hayotida ham muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlari, sifatleri namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin

Demak, muloqot — muloqotdoshning tasavvurlari, qiziqish va ehtiyojlarini sezish, his qilish va bilish, shuningdek, u muloqotdoshga ta'sir o'tkazish uslubi, muloqotdoshlarning o'zaro tushunish vositasi ekan. Zotan, odamlarning qalbiga quloq solish, ularning dardini eshitish jamiyatdagi masalalarni aniqlashga, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni bilishga yordam beradi, natijada odamlarning savollariga javob topish osonlashadi, inson manfaatlarini ta'minlash masalalari tezlashadi. "Davlat

— fuqaro — jamiyat” uchligi o‘rtasidagi muloqot, huquqiy muvozanat va o‘zaro tenglik barqaror fuqarolik jamiyatining poydevoridir.

Zero, fuqarolik jamiyati bilan demokratik huquqiy davlat ajralmasdir, ular mudom bir-birini taqozo etadi, bir-birini to‘ldirib, qo‘llab-quvvatlab boradi. Demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyati barqaror yashashining shartidir. U o‘z-o‘zini paydo qilmaydi va o‘z-o‘ziga xizmat qilmaydi – demokratik huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati barpo etadi va o‘ziga xizmat qilishga yo‘naltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, shubhasiz, mamlakatimizda inson manfaatlarini eng oliy qadriyatga aylantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida uchta yangi tuzilmani tashkil etishni ko‘zda tutuvchi mazkur Farmon davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining aholi bilan yanada yaqinroq hamkor, hamnafas bo‘lishini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Xususan, mazkur Farmon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ishlar boshqarmasi huzuridagi fuqarolar qabulxonasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini tashkil etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga aylantirish hamda respublikamizdagi har bir shahar va tumanlarda Prezidentining xalq qabulxonalarini faoliyat yuritayotgani jamiyatda katta o‘zgarishlarni yasadi. Ushbu tuzilmalarning asosiy vazifasi sifatida xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning butunlay yangi va samarali tizimini joriy qilish, ularning huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘la-to‘kis himoya qilishga qaratilgan samarali mexanizm hayotga tatbiq etildi.

Albatta, farmon doirasida mamlakatimizning barcha hududlarida tashkil qilingan yangi Xalq qabulxonalari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining tegishli davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishi uchun muhim institut va o‘ziga xos jamoatchilik nazorati instituti va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning katalizatori sifatida ham xizmat qildi.

Zero, kelib tushayotgan murojaatlarning xarakteri va mazmunmohiyatiga qarab, aholini bezovta qilayotgan turli muammolarga o‘z vaqtida yechim topish bilan birga, istiqbolda tegishli hududlarni strategik rivojlantirishning maqsad va vazifalarini ham aniqlashtirib olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Zero bunday tizim nafaqat har bir murojaatga o‘z vaqtida munosabat bildirilishini ta’minlamogda, balki shu bilan birga murojaatlarda ko‘tarilayotgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va ehtimoldan xoli bo‘lmagan salbiy tendentsiyalarni bartaraf qilish bo‘yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o‘z vaqtida tegishli choratadbirlarni belgilash imkonini ham bermoqda.

Umuman olganda 2017 yildan boshlab davlat idorlari va homiyat vakillari markazdan – mahallaga tamoyili asosida har bir inson, fuqaro bilan muloqot qilishning barcha samarali usullarini yo‘lga qo‘ydi. Natijada, qonunlarda belgilangan normalar amalga osha borib, muammolarga yechim topila bordi.

Shunda, barcha qilinayotgan ishlarning bir qismi sifatida keng jamaotchilik va OAVilari faoliyatining tubdan yaxshilangani va davlat hamda xalq o‘rtasida chinakam ko‘prikka aylanganligini ko‘rish mumkin.

Masalan, 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tgan ommaviy axborot vositalari soni 1437 tani tashkil etdi. 2018 yil 1 iyul holatida esa mamlakatimizda 1500 taga yaqin (qariyb 700 ta gazeta, 309 ta jurnal, 65 ta televidenie, 35 radio, 4 axborot agentligi, 15 ta axborotnoma-byulleten, qariyb 400 ta veb-sayt) ommaviy axborot vositalari faoliyat olib bordi.

Agar 2019 yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari – rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda bu raqam 2410 taga yetganida ham bunga guvoh bo'lish mumkin. Bu bilan muloqot vositalarida OAVi vakillari ham faol ishtirok etayotganligini ko'rish mumkin.

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, unga ko'ra:

- Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini bekor qilish;

- Barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo'linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish;

- Murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta'minlash;

- Takroriy murojaatlar ulushini kamida 2 barobar qisqartirish;

- Hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish;

- Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining qabullarida masofadan videoaloqa vositasida ishtirok etish imkoniyatlarini 100 foizga yetkazish kabi maqsadlarni belgilab olindi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, davlat va fuqarolar o'rtasida ochiq va oshkora muloqot mexanizmlari yo'lga qo'yilishi chinakam fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi uchun katta turtkidir. Qolaversa, bu maqolamiz avvalida sanab o'tilgan fuqarolik jamiyati ideallariga erishish yo'lida o'ta muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xalq bilan muloqotning mantiqan davomi bu inson huquqlarining bevosita ta'minlashi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Chunki muloqotdan maqsad ham insonlarning barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini ta'minlash va xizmat qilishni nazarda tutadi.

Bunda albatta sud hokimiyati muhim o'rin tutadi.

Sudning vazifalari – O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga dav'at etilgan. Sudning faoliyatida qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

Umuman olganda O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatidagi o'zgarishlarni inobatga olib uning faoliyatidan kelib chiqib ikkita davrga bo'lish mumkin. Ya'niki, birinchi davr: 1991 – 2016 yillarni, ikkinchi davr 2017 – 2024 yillar o'z ichiga oladi. Bunga asos tashkiliy – huquqiy, faoliyat muddati va samaradorlik tizimi, ijtimoiy-moddiy qo'llab – quvvatlashdagi o'zgarishlar va boshqa jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Inson huquqlarini himoya qilishda Ombudsman – instituti ham muhim o‘rin tutadi.

Demak, bu institut nima va qanday faoliyat yuritadi degan savol bo‘lishi mumkin.

Ombudsman so‘zi - bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda «inson huquqlarini himoya qiluvchi» sifatida tushuniladi. Bu so‘z shved tilidan olingan bo‘lib “vakil” degan ma‘noni anglatadi. U eng avval shved qiroli huzurida faoliyat yuritgan. Keyinchalik parlament shakllangandan so‘ng 1809 yildan Parlament huzuriga ko‘chgan.

Agar tarixni yaxshilab o‘rganadigan bo‘lsak, shved qiroli ushbu tajribani islom davlatlarda faoliyat yuritgan muhtasiblar ishidan o‘rganganiga guvoh bo‘lasiz. Muhtasiblar islom dini va shariat ahkomlari asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajarishgan.

XVII asrlarda shved qirolligiga hujum uyushtirilganda qirol hozirgi Turkiya hududlariga qochib o‘tishga majbur bo‘ladi. Qochqinda turk sultoni himoyasida mamlakatdagi fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi, o‘rnatilgan tartiblarni nazorat qiluvchi insonlarni kuzatadi. Keyinchalik o‘z vataniga qaytib, mana shu tizimni o‘z davlatida “Ombudsman” nomi bilan joriy etadi va bu Yevropada ham ommalashadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari buyicha vakili (Ombudsman) instituti 1995 yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda ta‘sis etilgan.

O‘zbekiston rivojlanishining yangi davrida ham ijtimoiy masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, mamlakat konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” degan norma alohida norma bilan mastahkamlandi. Shu maqsadda so‘nggi yillarda ijtimoiy soha rivoji borasida tizimli ishlar amalga oshib, ma‘lum natijalarga erishilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta‘lim agentligi ma‘lumotiga ko‘ra. 2024 yil 1 yanvar holatida O‘zbekistonda jami 33 942 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Unga ko‘ra, respublikadagi jami maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining 6780 tasi davlat bog‘chalari, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi. Ya‘niki, Nodavlat bog‘chalar tarkibi: xususiy — 847 ta; oilaviy — 24 ming 927 ta; DXSH asosidagi tashkilotlar — 1388 tani tashkil etadi. Bu bilan maktabgacha bo‘lgan bolalar qamroqini kengaytirish hamda ta‘lim olishini yaxshilashga erishilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning asosiy islohotida maktablarda ta‘lim sifatini yaxshilash, moddiy – texnik jihatdan mustahkamlash, yangi o‘quv adabiyotlar bilan ma‘minlash, o‘qituvchi hamda murabbiylarning faoliyatini har tomonlama qo‘llab – quvvatlash davlat siyosatining eng asosiy yo‘nalishiga aylangan. Bu borada yuqorida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ham bir qator maqsadlarda guvoh bo‘lish mumkin.

Agar bu boradagi statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak, kuyidagilarga guvoh bo‘lamiz.

Umumta‘lim muassasalari

- 2018/2019-o‘quv yili boshida — 9 774 ta;
- 2019/2020-o‘quv yili boshida — 10 090 ta;
- 2020/2021-o‘quv yili boshida — 10 181 ta;
- 2021/2022-o‘quv yili boshida — 10 289 ta;
- 2022/2023-o‘quv yili boshida — 10 522 ta;
- 2023/2024-o‘quv yili boshida — 10 750 ta.

Ya‘niki, umumta‘lim muassasalari soni 1991/1992-o‘quv yili boshiga nisbatan 2193 taga oshgan.

2024-yil mart oyida e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, 2017 yildan boshlab professional ta'lim institutiga alohida e'tibor berilib, tizimli ravishda rivojlantirilib borilmoqda.

Buning mantiqan davomi sifatida mamlakatda oliy ta'lim tizimi borasida keng qamroqli islohot olib borildi. Tubdan qabul jarayonlarida, uning miqdori hamda ta'lim jarayonlari, sifatida umuman olganda barcha jihatlarida o'zgarishlar bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasasi; O'zbekistonda 2023 yil holatida 213 ta OTM mavjud. Undan, 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mamlakatda 1 mln 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich orqali yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2022 yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari va uning samaradorligi borasida ham o'zgarishlar amalga oshib, natijadorlikka erishilmoqda.

Shuningdek, aholining hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash borasidagi choralar yangi O'zbekiston islohotida davlat siyostining eng ustuvor jihatiga aylangan.

Bu borada yangi qonunchilik asoslarining shakllantirilishi, tizimlarning o'zgaritirilishi, raqamlashtirish, moddiy asoslar, tashkiliy jihatlar, umuman olganda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi.

Birgina sohadagi raqamlarga murojaat qilsak, quyidagilarga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan shifoxonalari soni 1 432 tani tashkil etmoqda. Bu natija 2019-yilga solishtirganda 227 taga ko'paygan.

Yil boshiga ko'ra, Respublika bo'yicha shifoxona muassasalarida jami o'rinlar soni 174,5 mingtani tashkil etdi.

Bugungi kunda Toshkent shahri, barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassis shifokorlarning umumiy soni 105,7 ming nafarni, o'rta tibbiyot xodimlari 387,6 ming nafarni tashkil etmoqda.

Umuman olganda ijtimoiy masalalarda davlat institutlari, parlament vakillari va soha mas'ullari hamkorlikda ishlarni olib borishi muhim bo'lib, mamlakat fuqarolarining barchasiga daxldor bo'lgan bu kabi sohalaridagi o'zgarishlar barkamol avlodni voyaga yetkazish, qariyalar va nuroniyning sog'ligini asrash, mehnatga layoqatli qatlamni har tomonlama qo'llab – quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALARI

1-amaliy mashg'ulot: O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. (2 soat)

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni.

Amaliy mashg'ulot maqsadi:

Ushbu amaliy mashg'ulot tinglovchilarni O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), ularning jamiyat hayotidagi o'rni, ijtimoiy-sherikchilik munosabatlari hamda o'z-o'zini boshqarish organlarining demokratik jarayonlardagi ahamiyati bilan tanishtirish maqsadini ko'zlaydi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganadilar.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar: tavsifi va huquqiy asoslari

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida tan olinadi. NNT — bu o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko'zlamagan holda, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda jamoat manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi tashkilotlardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasiga ko'ra, fuqarolar jamoat birlashmalariga uyushish huquqiga egadirlar. NNTlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlar qatoriga "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunlar kiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda NNTlar faoliyatini rivojlantirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. 2018-yilda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonun, 2021-yilda "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

O'zbekistonda NNTlarning turlari va faoliyat yo'nalishlari

O'zbekistonda turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar mavjud:

1. **Ijtimoiy himoya va xayriya tashkilotlari** — kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, qariyalar, yetim bolalar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlariga yordam ko'rsatadi.

2. **Ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari** — ta'lim sohasidagi muammolarni o'rganadi, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

3. **Yoshlar tashkilotlari** — O'zbekiston yoshlar ittifoqi va boshqa yoshlar tashkilotlari yoshlarning manfaatlarini himoya qiladi.

4. **Ekologik tashkilotlar** — atrof-muhit muhofazasi, ekologik ta'lim masalalari bilan shug'ullanadi.

5. **Huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar** — inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha ishlar olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil boshida mamlakatda 10 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan.

NNTlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki

Siyosiy jarayonlarda ishtiroki

O'zbekistonda NNTlar quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

- Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish
- Qonun loyihalarini muhokama qilishda ishtirok etish
- Saylov jarayonlarida kuzatuvchilar sifatida ishtirok etish
- Jamoatchilik fikrini o'rganish va ifodalash

2022-yilda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Ushbu qonun NNTlarga davlat organlari faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy sohadagi faoliyat

NNTlar quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadilar:

- Ijtimoiy yordam ko'rsatish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash
- Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish
- Aholining huquqiy va ijtimoiy savodxonligini oshirish

Masalan, "Sen yolg'iz emassan" jamg'armasi, "Mehribonlik" kabi tashkilotlar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlariga yordam ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy sohadagi faoliyat

NNTlar iqtisodiy sohadagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynaydilar:

- Tadbirkorlik sub'ektlariga huquqiy va axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish
- Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, "Tadbirkor ayollar" assotsiatsiyasi kabi tashkilotlar iqtisodiy sohadagi islohotlarga ko'maklashmoqda.

Ijtimoiy-sherikchilik: mohiyati va amaliyoti

Ijtimoiy sherikchilik — bu davlat organlari, NNTlar va biznes tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik bo'lib, uning maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini birgalikda hal etishdir.

2018-yilda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, ijtimoiy sheriklik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. **Ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash** — NNTlarning loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat subsidiyalari va grantlari ajratish.
2. **Davlat ijtimoiy buyurtmasi** — ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha davlat organlari tomonidan NNTlarga beriladigan buyurtmalar.
3. **Jamoatchilik-maslahat organlari** — davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari va komissiyalari.

2021-yilda O'zbekistonda ijtimoiy sherikchilik doirasida 1000 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi, ularga davlat byudjetidan 25 mlrd. so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

O'z-o'zini boshqarish organlari va ularning demokratlashtirish jarayonidagi o'rni

O'zbekistonda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari — mahallalar muhim o'rin egallaydi. Mahalla fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organi bo'lib, u O'zbekistonda

azaldan mavjud bo'lgan hamda aholining mahalliy darajadagi masalalarni hal etishda ishtirok etish imkonini beruvchi institut hisoblanadi.

Mahallalarning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. 2022-yilda mahallalar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yangi islohotlar e'lon qilindi.

Mahallalarning asosiy vazifalari:

1. **Ijtimoiy himoya** — kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz qariyalar va boshqa ehtiyojmand aholi qatlamlariga yordam ko'rsatish.
2. **Jamoatchilik xavfsizligi** — huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash.
3. **Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash** — aholiga iqtisodiy faollikni oshirishda yordam berish.
4. **Madaniy va ma'rifiy ishlar** — milliy an'analar va qadriyatlarni saqlash, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.

Mahallalar demokratlashtirish jarayonlarida alohida rol o'ynaydi. Ular "pastdan yuqoriga" demokratiya tamoyillarini joriy etishga, fuqarolarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etishga yordam beradi.

2022-yilda "Mahalla raqamli texnologiyalar markazi" loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu loyiha mahallalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
2. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri), 2021-yil.
3. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2018-yil.
4. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri), 2022-yil.
5. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2022-yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
7. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2020.
8. Saidov A.X. Nodavlat notijorat tashkilotlari: huquqiy maqomi va ularning O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. – T.: Adolat, 2020.

2-amaliy mashg'ulot: O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel). (2 soat)

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O'zbekistonining asosiy qonuni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo'nalishlari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi:

Talabalarda O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining demokratik tamoyillarini, mazmun-mohiyatini va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bilim va tushunchalarni shakllantirishdan iborat. 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri umumxalq referendumini orqali qabul qilindi. Bu jarayon O'zbekiston tarixida jamiyat barcha qatlamlari faol ishtirok etgan, ochiq va demokratik tarzda o'tgan muhim siyosiy voqea bo'ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, parlament va mahalliy kengashlarning mustaqilligini oshirish, sud tizimi va so'z erkinligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini rag'batlantirish kabi zamonaviy demokratik qadriyatlar mustahkamlandi. Yangi Konstitutsiya XXI asrning zamonaviy O'zbekistonini, uning ochiqlik, taraqqiyot va adolat tamoyillariga tayanuvchi huquqiy asosiy qonuni sifatida e'tirof etiladi.

Aynan ushbu Konstitutsiya asosida mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta'minlashga qaratilgan yangi strategik rivojlanish yo'llari belgilanmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" ham xalqi manfaatlariga tayanib, iqtisodiyotni kuchaytirish, ijtimoiy himoyani mustahkamlash, ilmfan va texnologiyalarni modernizatsiya qilish, adolatli va inklyuziv jamiyat qurish haqida aniq maqsad va yo'nalishlarni belgilab berdi.

Ushbu strategiya aholining daromadini oshirish, yoshlar va ayollarga yana-da keng imkoniyatlar yaratish, mahalliy boshqaruvlarni rivojlantirish, ekologik muammolarni zamonaviy yechish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan. Yangi Konstitutsiya va taraqqiyot strategiyasi xalq tomonidan qabul qilinib, O'zbekiston tarixida yangi bosqich boshlanishiga zamin yaratdi va taraqqiyotning huquqiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). Toshkent, 2023-yil.
2. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022-2026 yillar" rasmiy hujjatlar to'plami, Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning konstitutsiyaviy islohotlar va strategik taraqqiyotga doir ma'ruzalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Konstitutsiya va strategiya bo'yicha rasmiy axborot portallari (lex.uz).

3-amaliy mashg'ulot: 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari. (2 soat)

2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar.

Amaliy mashg'ulot maqsadi:

Ushbu amaliy mashg'ulot 2017-yildan so'ng O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi muloqot mexanizmlarining takomillashuvi, Xalq qabulxonalari faoliyati hamda mahalla institutining rivojlanishi bilan tanishtirishni maqsad qiladi. Mashg'ulot davomida talabalar O'zbekistonda yangi siyosiy tizimning shakllanish jarayonlari, "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan g'oyaning amaliy ifodasini o'rganadilar.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu davr "Harakatlar strategiyasi"dan boshlanib, keyinchalik "Taraqqiyot strategiyasi" bilan davom ettirildi. Siyosiy sohadagi o'zgarishlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, davlat boshqaruvi tizimining ochiqqligini ta'minlash, oshkoralik prinsipini kuchaytirish; ikkinchidan, davlat xizmatchilarining xalq oldidagi mas'uliyatini oshirish, hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish; uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etish.

O'zbekistonda yangi siyosiy madaniyat shakllanmoqda. Buning yaqqol namunasi 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining umumxalq referendumida qabul qilinishi bo'ldi. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida aholining turli qatlamlari, jumladan, yoshlar, ayollar, fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "Inson — jamiyat — davlat" tamoyili ustuvor bo'lib, unda inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida belgilandi.

Davlat organlarining xalq bilan muloqoti 2017-yildan keyin tubdan yangi bosqichga ko'tarildi. Prezident virtual qabulxonasi, Bosh vazir qabulxonasi, davlat organlari rahbarlarining sayyor qabullarini o'tkazish amaliyoti joriy etildi. 2017-yil yanvar oyida Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi tashkil etildi. Bu tizimning samaradorligi shundaki, ular fuqarolarning murojaatlarini qabul qilishdan tashqari, muammolarning yechimini topishda ham faol ishtirok etadi. 2017-2023 yillar davomida Xalq qabulxonalari orqali 5 milliondan ortiq murojaatlar kelib tushdi va ularning 70 foizdan ortig'i ijobiy hal etildi.

Virtual qabulxona (pm.gov.uz) tizimi fuqarolarning muammolarini masofadan hal qilish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, 2021-yilda barcha davlat organlarining faoliyati va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash tizimi – "E-Qaror" dasturi ishga tushirildi. Bu platforma orqali fuqarolar davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari qarorlarini muhokama qilish, o'z takliflarini berish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

2022-yildan boshlab "Ochiq byudjet" portali ishga tushirilib, fuqarolar mahalliy

byudjet mablag'larining taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish, fuqarolik byudjetini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu islohotlar natijasida davlat boshqaruvining shaffofligini ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish mexanizmlari joriy etildi.

Mahalla instituti O'zbekistonning o'ziga xos fuqarolik jamiyati institutlaridan biri bo'lib, 2017-yildan keyin uning faoliyati yanada takomillashdi. 2020-yilda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. 2022-yilda esa "Mahalla" tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi qonun qabul qilindi. Bu qonun mahallalarning huquqiy maqomini kuchaytirdi, ularning davlat organlari bilan hamkorlikdagi faoliyatini yanada takomillashtirdi.

2021-yilda "Mahallabay" ishlash tizimi joriy etilib, davlat dasturlari va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda mahallalarning ishtiroki kuchaytirildi. Har bir mahallada mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Bu tizim orqali ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida hal etish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Mahallalarning yangi vazifalari qatoriga fuqarolarni tadbirkorlikka jalb etish, yoshlar bandligini ta'minlash, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, diniy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish kabi vazifalar kiritildi. Mahalla faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida 2022-yilda "Mahallabay" elektron axborot tizimi ishga tushirildi. Bu tizim orqali mahallalardagi muammolarni aniqlash, hisobga olish va hal etish jarayonlari avtomatlashtirildi.

O'zbekiston jamiyatida 2017-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar natijasida fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengaydi, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati yanada takomillashdi. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va faol fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon hozirgi kunda ham izchil davom etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent, 2023.
2. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni.
3. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
4. "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi PF-87-son Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezis, shakllanish va rivojlanish. – Toshkent, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari faoliyati to'g'risidagi hisobotlar (2017-2023).

4-amaliy mashg'ulot: Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat. (2 soat)

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalaridagi tub o'zgarishlar.

Amaliy mashg'ulot maqsadi:

Ushbu amaliy mashg'ulot Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa ijtimoiy sohalaridagi tub o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini o'rganish, ularning amaliy natijalari va istiqbolli yo'nalishlarini tahlil qilishga qaratilgan. Mashg'ulot davomida talabalar ijtimoiy sohada islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari, amalga oshirilayotgan loyihalar va erishilgan natijalar bilan tanishadilar.

Yangi O'zbekistonda 2017-yildan boshlab ijtimoiy sohada tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" g'oyasi ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyiliga aylandi. Bu tamoyil asosida insonlarning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilib, "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda ta'lim tizimining huquqiy asosi sifatida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni bilan ta'lim sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Maktabgacha ta'lim sohasida qamrov darajasi 2017-yilda 27 foizdan 2023-yilda 70 foizga yetdi. Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni keskin oshdi. Xalq ta'limi sohasida maktablar soni 10 mingdan oshdi, yangi maktablar barpo etildi, mavjudlari ta'mirlandi. Zamonaviy Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashgan maktablar tashkil etildi. Oliy ta'lim sohasida qamrov darajasi 2017-yildagi 9 foizdan 2023-yilda 38 foizga yetdi. Oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 198 taga ko'paydi. Davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritadigan oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochildi.

Sog'liqni saqlash sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, aholiga shifokor va dori-darmonlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi. 2017-yildan buyon 2 mingdan ortiq qishloq vrachlik punktlari modernizatsiya qilindi. Viloyat markazlarida ko'p tarmoqli klinikalar barpo etildi. Tibbiy sug'urta tizimi joriy etilmoqda. Koronavirus pandemiyasi davrida tibbiyot tizimining bardoshliligi sinaldi va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish zarurati yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. 2022-yilda "Tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va bu sohada tajriba-sinov ishlari boshlandi. Elektron sog'liqni saqlash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Tibbiyot sohasida xususiy sektor ulushi ham sezilarli darajada oshdi.

Turizm sohasida 2017-2023 yillarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. 2018-yilda viza tartibini soddalashtirish bo'yicha islohotlar o'tkazildi. 2019-yildan boshlab 86 davlat

fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etildi. Bu o'zgarishlar natijasida xorijiy turistlar soni keskin oshdi: 2017-yilda 2,8 mln xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,7 mln kishiga yetdi. COVID-19 pandemiyasidan keyin turizm sohasi tez tiklanib, 2023-yilda turistlar soni 7,5 mln kishidan oshdi. Turizm infratuzilmasi rivojlandi, yangi mehmonxonalar qurildi, zamonaviy turizm obyektlari barpo etildi. Ziyorat turizmi, ekologik turizm, agroturizm kabi yangi yo'nalishlar faol rivojlanmoqda. 2019-yilda "Turizm to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Sport sohasida ham muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Sport inshootlari soni sezilarli darajada oshdi. Yangi sport maktablari, stadionlar va sport komplekslari barpo etildi. Aholining sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Xalqaro sport musobaqalarida O'zbekiston sportchilarining yutuqlari ortib bormoqda. 2021-yilgi Tokio Olimpiadasida O'zbekiston sportchilari 19 ta medalni qo'lga kiritdi, bu mustaqillik yillaridagi eng yaxshi natija bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda madaniyat sohasi ham yangilanmoqda. Madaniyat vazirligi qayta tashkil etilib, uning tuzilmasi takomillashtirildi. Ko'plab madaniyat obyektlari, muzeylar va teatrlar ta'mirlandi. Zamonaviy madaniyat markazlari barpo etildi. O'zbek milliy madaniyatini jahonga tanitish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 23-sentabr.
3. "Tibbiy sug'urta to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil.
4. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2019-yil 18-iyul.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ijtimoiy sohaga oid ma'lumotlari (2017-2023).

V.KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALARI

1-ko'chma mashg'ulot: Milliy davlat boshqaruvi tizimi (6 soat)

Ko'chma mashg'ulotning asosiy maqsadi — tinglovchilarni O'zbekiston Respublikasidagi davlat boshqaruvi tizimi, uning tuzilishi, vazifalari va amaliy faoliyati bilan bevosita tanishtirishdan iborat. Mashg'ulot davomida tinglovchilar davlat boshqaruv organlari — hokimliklar, vazirliklar yoki agentliklar faoliyatini kuzatib, boshqaruv jarayonining amaliy qirralarini o'rganadilar. Bu orqali ularda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ijro etish va nazorat qilish tizimi haqida amaldagi tasavvur shakllanadi.

Mashg'ulot avvalo davlat boshqaruvi tushunchasi va uning asosiy tamoyillarini yodga olishdan boshlanadi. Milliy davlat boshqaruvi — bu davlat hokimiyatining ijro etuvchi tarmog'i bo'lib, mamlakatni boshqarishda samaradorlik, qonuniylik va xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta'minlaydigan tizimdir. O'zbekistonda davlat boshqaruvi Konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiriladi. Uning markazida Prezident bosh ijro etuvchi organ sifatida turibdi. Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, qo'mitallar va mahalliy hokimliklar esa ijro hokimiyati tizimining tarkibiy qismlaridir.

Ko'chma mashg'ulot vaqtida tinglovchilar tashrif buyurgan davlat organining tuzilmasi, asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan tanishadilar. Masalan, hokimliklarda mahalliy ijro hokimiyati organlarining ishlash tartibi, qarorlar qabul qilish va ijro jarayonlari, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shu orqali tinglovchilar davlat boshqaruvidagi ochiqlik va shaffoflik tamoyillari qanday amalga oshirilayotganini amalda ko'radilar.

Mashg'ulot jarayonida davlat xizmatchilari bilan suhbatlar tashkil etilib, ularning kundalik ish faoliyati, mas'uliyat darajasi va jamoatchilik bilan munosabati haqida ma'lumot olinadi. Tinglovchilar kuzatuvlar asosida qisqacha hisobot tayyorlaydilar va uningda quyidagilarni yoritadilar: organning nomi, asosiy funksiyalari, kuzatilgan boshqaruv jarayonlari, amaliy xulosalar va takliflar.

Ko'chma mashg'ulot natijasida tinglovchilarda davlat boshqaruvi tizimining amaliy jihatlar haqida chuqurroq bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Ular milliy boshqaruv an'analari zamonaviy islohotlar bilan qiyoslashni o'rganadilar, boshqaruvda fuqarolik jamiyatining o'рни va ahamiyatini anglaydilar hamda davlat organlarining faoliyatini tahlil qilish malakasiga ega bo'ladilar.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Davlat boshqaruvi to'g'risida"gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari.
4. Davlat boshqaruvi akademiyasi o'quv qo'llanmalari.
5. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy sayti.
6. www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.

2-ko‘chma mashg‘ulot: “Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar” (6 soat)

Ko‘chma mashg‘ulotning asosiy maqsadi

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sud-huquq tizimi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng qamrovli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadi — inson manfaatlarini ustuvor qilish, xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi tamoyilini amalda ta’minlashdir.

Islohotlar doirasida davlat boshqaruvini optimallashtirish, byurokraziyani qisqartirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va fuqarolar bilan ochiq muloqotni kuchaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatchilari faoliyatida samaradorlik va shaffoflik mezonlari joriy etilib, natijaviy boshqaruv tizimi shakllanmoqda. Iqtisodiyot sohasida xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, erkin bozor tamoyillarini joriy etish, soliq va bojxona tizimlarini soddalashtirish kabi choralar orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh ta’minlanmoqda.

Taraqqiyot strategiyasi ijtimoiy sohalarini ham qamrab olgan bo‘lib, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, yoshlar siyosati va gender tengligini ta’minlash yo‘nalishlarida ham amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, ekologiya, aholi bandligi, ijtimoiy himoya, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma rivojiga oid dasturlar keng qamrovli tarzda amalga oshirilmoqda.

Sud-huquq sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, adolatli sud tizimini yaratish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini isloh qilish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, OAV erkinligini ta’minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali davlat va jamiyat o‘rtasida hamkorlik munosabatlari mustahkamlanmoqda.

Taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy o‘sinhni ta’minlash, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, barqaror rivojlanish va yangi O‘zbekistonni qurish sari muhim qadam bo‘lmoqda. Bu jarayonda inson kapitali, innovatsiya va adolat ustuvor bo‘lgan davlat tizimi shakllanmoqda.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston – 2030” Taraqqiyot strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining islohotlar to‘g‘risidagi farmon va qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (Toshkent, 2022).
5. www.strategy.uz – Taraqqiyot strategiyasi rasmiy sayti.
6. www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.
7. www.gov.uz – O‘zbekiston Hukumati rasmiy portali.

VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Avtokratiya	Davlat boshlig'i cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug'atlaridahoimiyatga da'vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy hukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi.	An autocracy is a government in which the head of state has unlimited power. In modern dictionaries, this concept is expressed as a person claiming power, a group's desire for unlimited political dominance.
Avtoritarizm	Davlatni boshqarish usullaridan biri. Yakka shaxsning davlatning o'z ta'siri, obro'si, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o'z taraqqiyoitining murakkab, qaltis va mas'uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma'noda namoyon bo'ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-politsiya fashistik tartibotlar "kazarmali kommunizm" shuningdek stalinizm kiradi.	<i>One of the ways of governing the state. The individual is the one who governs the state based on his influence, prestige, organization, enthusiasm, and good knowledge. Authoritarianism usually emerges at a time when society is going through difficult, dangerous and responsible periods of its development. In the twentieth century, authoritarianism has been largely negative. Today's Darwinist authoritarianism includes military-police fascist regimes, "barracks communism," as well as Stalinism.</i>
Agressiya	Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo'lga kiritish, uning mustaqilligini yo'q qilish yoki cheklash, aholisini bo'ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to'g'ridan-to'g'ri	<i>Acquisition of territory by one state in relation to another, the destruction or restriction of its independence, the use of any force to subjugate its</i>

	qurolni agressiya	population, direct aggression
Bozor iqtisodiyoti	Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.	<i>A set of economic relations that accelerates the development of society. The essence of a marketeconomy is that it turns all members of society into regular participants through production and consumption. Therefore, a market economy allows production to improve dayby day, product quality to increase, and quantity to increase.</i>
Vijdon erkinligi	Bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.	<i>This is the right of citizens to believe in any religion or not to believe in any religion. The Universal Declaration of HumanRights is an international legal instrument adopted by the United Nations in 1948. This document defines the rights and freedoms of thepeople, the rights and freedoms that ensure their livelihood</i>
Global muammolar	Ushbu muammolar o'zining daxshatli oqibatlarini, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bu muammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga	<i>These problems are somewhat different from any other problem in that they have dire consequences and damage to crime. These problems cannot be compared to a singleproblem that occurs in thelife of a society. They are spread over a large part of</i>

	yoyilgan bo'lib, ko'pchilik	
	mamlakatlar va xalqlar hayotigakuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.	<i>the world due to their scale and scale, and have a strong negative impact on the lives of many countries and peoples. 'shows</i>
Fedarativ (murakkab)	Davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qisimlardan tuzilgan.	<i>States are made up of parts of the state, such as autonomous states, territorial units of state.</i>
Demokratiya	Demokrratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiyati ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuni— ushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.	<i>An important feature of democracy is that it officially declares the rule of the people, that is, the subordination of the minority to the majority, and recognizes the freedom and equality of citizens. These conditions are reflected in the basic law of society and the life of its members - the constitution of the state.</i>

Integratsiya	Milliy iqtisodiyotdarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo'nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o'rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora tadbirlarni qo'llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga	<i>The process of economic integration and integration of national economies in order to have qualitatively new conditions and expand the country's development potential. Economic integration cooperation is a priority in economic policy between the countries of production development, mainly production occurs separately, and in order to implement this process, countries take a number of measures depending on the level of development of the</i>
	bog'liq hamda besh pog'onaga ajratiladi.	<i>integration process and five gardens allocated to the mother.</i>
Impichment	Davlat jinoyatchilarini mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig'i– Prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustahkamlangan. Ma'suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.	Prosecution of state criminals and officials, even the head of state, for violating the provisions of the constitution is enshrined in law. The legislature is difficult to account for, and the upper house is left to decide.

Inaguratsiya	Davlat boshlig'i lavozimiga kirishish oldidan o'tkaziladigan tantanali marosim. Yangi Prezident va vitse Prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni iko'rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi.	<i>Ceremony before the inauguration of the President. Ceremony of inauguration of the new President and Vice President. It also symbolizes inauguration at the opening of sculpture exhibitions.</i>
Korrupsiya	Korrupsiya – (lotincha “corruptio”- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarni suiste'mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qayerda davlat bo'lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.	<i>A crime of abuse of office rights by an official for the purpose of enrichment. Corruption is one of the oldest societies: Wherever there is a state, corruption is one of the most widespread crimes in various sectors of the state apparatus, from the bottom up.</i>
Lobbizm	Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko'rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo'lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni,	<i>Lobbying - a large monopoly agency or organizational group operating in the legislature, which does not force</i>
	zakazlarini, yordamga beriladigan mablag'ni (subsidiyani) olish yo'lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo'lsa sotib olishi) yo'lini tutuvchi tushuncha.	<i>lawmakers to buy (if necessary) laws, orders, aid (subsidies) that represent their interests. the concept that holds the line.</i>
Mentalitet	Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat,	<i>Mentality - (Latin "mens" - mind, perception) - the level of thinking of a society, nation, unit or individual, the spiritual potential of the individual, their ability to analyze the laws of life, mental ability formed in important social conditions,</i>

	millat yoki shaxsning mentaliteti uning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.	<i>mental strength , the mentality of a society, nation, or individual also includes its specific traditions, customs, traditions, religious beliefs, and superstitions.</i>
--	--	---

VII. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. B.I.Ismailov, I.I.Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.:O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Sudyalar oliy maktabi, 2020.-272 b.

3. Юсуфжанов О., Усманова С. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // -Т.: Адвокат, 2016. №5 - 59-626.

4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

5. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

6. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

7. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2015. – с.185-197.

8. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.

9. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

10. Кирьякова А.В, Ольховая Т.А., Михайлова Н.В., Запорожко В.В. Интернет-технологии на базе LMS Moodle в компетентностно-ориентированном образовании: учебно-методическое пособие / А.В. Кирьякова, Т.А. Ольховая, Н.В. Михайлова, В.В. Запорожко; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ, 2011. – 116 с. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf

11. Кононюк А.Е. Облачные вычисления. – Киев, 2018. – 621 с.

12. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

13. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.

14. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.

15. M.Xurramov. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish [Matn]: metodik qo'llanma / M.Xurramov. K.Xalmuratova. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 28 b.
16. Тенденции и развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. - М., 2021.- 198 с.
17. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o'zingizni kashf qiling. -T.: Navro'z,2020. ISBN.9789943659285
18. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
19. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
20. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
21. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
22. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
23. Печеркина, А.А.Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст]:монография/А.А.Печеркина, Э.Э.Сыманюк, Е.Л.Умникова: Урал. гос. пед. ун-т.–Екатеринбург:[б.и.], 2011. – 233 с.
24. О.С. Фролова. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.
25. Компетенции педагога XXI века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.
26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
27. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
28. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ -М.:Айрис-пресс, 2016.
29. Натанзон Э. Ш. Приемы педагогического воздействия.-М, 2012.-202 с.
30. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2014.
31. R.H. Murtazaeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2019.
32. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. – T., 2024.
33. O'zbekiston tarixi. A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. 1-jild. Darslik. – T.: NIF MSH. 2024.
34. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – T.: NIF MSH. 2024.

35. К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Т.: NIF MSH, 2024.
36. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Darslik.- T.: O‘zbekiston, 2019.
37. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazaeva. Darslik. – T., 2020.
38. D.T.To‘xtaboeva. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: ma’naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar. O‘quv qo‘llanma. – T., 2021.
39. N.Oblamurodov. F.Tolipov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2022.
40. A.A.Insopov. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet. 2023.
41. O.Q.Alimardonov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari (o‘quv qo‘llanma). – T., FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.
42. Т.И.Дорошенко. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). – Т.: Metodist nashriyoti, 2023.
43. Д.М.Иноятова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). – Т.: Metodist nashriyoti, 2023.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.